

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida**

**FATLIYEVA GULNAR MARDIYEVNA**

**MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MUSIQIY VA MUSIQIY  
NAZARIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**Musiqiy ta'lim bo'yicha magistr  
darajasini olish uchun**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga  
ruxsat berildi.  
“Musiqqa o'qitish metodikasi va  
xalq cholg'u asboblari” kafedra mudiri  
E.K.Djalilov\_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar:  
dots. F.M.Obidov\_\_\_\_\_

**SAMARQAND -2013.**

**M**

# **Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy, musiqiy nazariy savodxonligini rivojlantirish**

## **R E J A**

### **Kirish.**

#### **I-bob: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning nazariy- amaliy asoslari.**

1.1.O'quvchilarning musiqa madaniyatini shakllantirishda musiqiy-nazariy bilimlarning o'rni va ahamiyati

1.2. O'quv faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarini rivojlantirish muammolari.

#### **1-bob bo'yicha xulosalar.**

#### **II-bob: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari.**

2.1 Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy bilimlarini rivojlantirishning metodik shart –sharoitlari.

2.2 Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini takomillashtirish texnologiyasi

#### **2-bob bo'yicha xulosalar.**

#### **III-bob: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish uslublarining tadbig'i.**

3.1 O'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini takomillashtirishga yo'naltirilgan amaliy pedagogik faoliyat mazmuni.

3.2 O'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish jarayonining samaradorligi.

#### **3-bob bo'yicha xulosalar.**

#### **Umumiy xulosalar.**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

#### **Ilovalar.**

## MUNDARIJA:

|  |              |
|--|--------------|
| <b>Kirish.</b>   | <b>3-8</b>   |
| <b>I-bob: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning nazariy- amaliy asoslari.</b> |              |
| 1.1.O'quvchilarning musiqa madaniyatini shakllantirishda musiqiy-nazariy bilimlarning o'rni va ahamiyati                               | <b>9-18</b>  |
| 1.2. O'quv faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarini rivojlantirish muammolari.                      | <b>19-30</b> |
| <b>1-bob bo'yicha xulosalar.</b>   |              |
| <b>II-bob: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari.</b>   |              |
| 2.1 Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy bilimlarini rivojlantirishning metodik shart –sharoitlari.         | <b>31-36</b> |
| 2.2 Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini takomillashtirish texnologiyasi                          | <b>36-49</b> |
| <b>2-bob bo'yicha xulosalar.</b>   |              |
| <b>III-bob: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish uslublarining tadbig'i.</b>       |              |
| 3.1 O'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini takomillashtirishga yo'naltirilgan amaliy pedagogik faoliyat mazmuni.      | <b>50-58</b> |
| 3.2 O'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish jarayonining samaradorligi.                                 | <b>58-64</b> |
| <b>3-bob bo'yicha xulosalar.</b>   |              |
| <b>Umumiy xulosalar.</b>   |              |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.</b>   |              |
| <b>Ilovalar.</b>   |              |

## KIRISH.

**Mavzuning dolzarbligi:** Kelajak bugundan boshlanadi - deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti, uni barkamol inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy, ma'naviy va tarbiyaviy jarayonning qanday vazifalar asosida qurilganligiga bog'liqdir.

Bugungi kunda Respublikamizda yosh avlodning tarbiyasiga e'tibor birinchi navbatda ularda xalqimizning madaniyati, sa'nati, tarixi, adabiyoti, tili va milliy qadriyatlariga muhabbatni shakllantirishga, shu bilan birga kelgusida ularni rivojlantirishga o'z hissasini qo'sha oladigan intellektual salohiyatli shaxslar sifatida kamol toptirishga ustuvor ahamiyat berilayotgani bejiz emas. Chunki, ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy – ahloqiy tarbiya va muayyan bilimlarni, ya'ni tanlangan fan asoslarini chuqur egallashi bularning barchasi barkamol avlodni yetishtirishning eng muhim omillari xisoblanadi.

Hamma zamonlarda ham insonning ma'naviy ongi, dunyoqarashi va madaniy kamolotini shakllantirishda musiqa san'ati o'zining qudratli ta'sir kuchi bilan muhim o'rin tutib kelgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek “Bizning Vatanimizda musiqaning sehrli kuchini his etmay yashayotgan kishini tanish qiyin. Bugungi kunda ayniqsa, musiqa san'ati boshqa san'at turlariga nisbatan yoshlarning tarbiyasiga ko'proq va kuchliroq ta'sir etmoqda.”

Haqiqatdan ham musiqa insonning ahloqiy va estetik hissiyotlariga emosional ta'sir etish xususiyatlari bilan pedagogik fanlar tizimida alohida o'rin tutadi.

Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini tarbiyalashdan iborat. Musiqa madaniyati esa keng ma'noda o'quvchilarni musiqani idrok etish, tinglash, taxlil qilish, unga tavsif bera olish, g'oyaviy-badiiy mazmunini his etish, undan ma'naviy, badiiy ozuqa olish ko'nikmalariga ega, shu bilan birga musiqiy, musiqiy-nazariy jihatdan savodxonlik darajasini ifoda etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda umumta'lim maktablari musiqa ta'limi va tarbiyasi oldida o'quvchi shaxsini musiqiy va musiqiy-nazariy jihatdan savodli, bilimli va estetik jihatdan barkamol

shaxs sifatida o'stirish, hamda "Davlat ta'lim standartlari" talablari darajasida nazariy bilim va malakalarini tarkib toptirish muommolari yotadi.

Pedagogik kuzatuvlarimiz umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilarining aksariyatini ushbu faoliyatga to'liq javob beradigan darajada zarur tayyorgarlik va malakaga ega emasligi, musiqa o'qitish metodikasidan yetarli bilim va tajribani yetishmasligi, musiqa darslarini ko'p hollarda qo'shiq kuylash faoliyati bilan cheklanib qolishi, zarur o'quv-uslubiy manbalar, ko'rgazmali texnik vositalar bilan ta'minlanmaganligi, pedagogik shart-sharoitlarni yaratilmaganligi, qolaversa, musiqa o'qituvchilarini tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni maktab faoliyatiga tayyorlash talab darajasida emasligi bilan izohlanadi. Bularning hammasi umumta'lim maktablarida o'quvchilarni musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik tizimini DTS talablari asosida uzluksiz rivojlantirib, takomillashtirib borishni ta'qoza etadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xalqimiz juda boy musiqiy madaniy merosga ega. Musiqa ilmi, uning nazariy asoslarini o'rganishda ham buyuk ajdodlarimizning jahon musiqa ilmida ham o'z o'rinlari bor. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Az – Zamaxshariy, Kavkabiyy, Darvish Ali Changiylarning musiqa ilmiga oid asarlari bunga misol bo'la oladi. O'zbek xalq musiqa asarlarini to'plash, notaga olish, nazariy tuzilishi, turkumlari, yo'nalishlari, ijrochilik an'analari, uslublarini o'rganishda Yu.Rajabiy, I.Rajabov, T.G'ofirbekov, O.Abdullayev, O.Ibrohimov, S.Begmatov, O. Matyoqubov kabi olimlarni ishlarini ta'kidlab o'tish mumkin.

Musiqa san'ati, uning shaxs kamolotidagi o'rni, musiqa san'atining ayrim tur, janrlari, ahloqiy, estetik tarbiyani amalga oshirish masalalari S.K.Annamurodova, R.Qodirov, H.Nurmatov, F.Xalilov, K.Mamirov, S.Romanova, D.Djamolova, I. Qudratov, E. Fayzullayevlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Oliy va umumiy o'rta ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish, bo'lg'usi o'qituvchilarni maktab o'quvchilarida musiqiy, musiqiy-nazariy bilimlarini

o'zlashtirish jarayonini samarali tashkil etish masalalari D.Soipova, F.Nazarov, M.Axmedov, O.Ibragimov, D.Karimova tamonidan yoritilgan.

Ushbu ishlarni nazariy va metodik tahlili umumta'lim maktablarida o'quvchilarni musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish, uning zamonaviy talablar darajasidagi metodik shart-sharoitlari yetarli darajada o'rganilmaganligini ko'rsatdi. Shunga ko'ra biz o'zimizning dissertasion tadqiqotimiz mavzusini "Musika darslarida o'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish." (Boshlang'ich sinflar misolida) deb nomladik.

### **Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Tadqiqot ishi umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning 4-4 "Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar bandiga muvofiq, A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga asoslangan holda bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi:** umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning ilg'or pedagogik- texnologik va metodik tizimini ishlab chiqish.

### **Tadqiqot vazifalari:**

1. Musiqa fanini o'qitishga oid ilmiy, uslubiy, manbalarni o'rganish, mavjud muammolarini aniqlash;
2. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarini DTS talablari darajasida o'tilish holatini, o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish xolatlarini tahlil qilish;
3. O'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning ilg'or pedagogik texnologiyalariga asoslangan mazmunini ishlab chiqish;

4. O'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqish;
5. O'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samadorligini amaliy tajriba ishlar orqali asoslash.

**Tadqiqot obyekti:** umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish mazmuni va metodikasi.

**Tadqiqot metodlari:** mavzuga oid ilmiy, uslubiy adabiyotlarni o'rganish, nazariy jixatdan tahlil qilish, umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darsini o'tishga oid dasturiy, me'yoriy xujjatlarni o'rganish, ilg'or tajribali o'qituvchilar bilan suhbat, savol-javob o'tkazish, ish mazmunini yoritishda qiyosiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, anketa-so'rov, tajriba sinov, matematik statistika metodlaridan foydalanish;

**Himoyaga olib chiqiladigan holatlar :**

- musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish jarayonini DTS talablari darajasida tashkil etishning metodik tizimini ishlab chiqishning dolzarb pedagogik muammo ekanligi;
- Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va fiziologik imkoniyatlari;
- o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni, shakl, uslub va vositalari;
- o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligi darajasini belgilovchi mezonlar;
- o'quvchilarni musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga samarali xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar.

**Ishning ilmiy yangiligi:**

1. Umumtalim maktablarida (boshlang'ich sinflar misolida) o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish alohida tadqiqot obyekti va muammo sifatida o'rganildi;
2. Umumta'lim maktablarimusiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga oid tajribalar umumlashtirildi.
3. Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish ko'lamini kengaytirish imkoniyatlarini beruvchi ish shakl, uslubiva vositalari aniqlandi.
4. O'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning ilmiy farazi** Agar:

- musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari fanni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib yoritib berilsa;

- o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar, zamonaviy texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanilsa,

- o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni chuqur egallashga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni va metodik tizimi ishlab chiqilsa va amaliyotga tadbiiq etilsa;

- musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligi darajasini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilsa o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan musiqiy ta'lim jarayoni mazmuni boyitiladi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:**

Tadqiqot natijalari, mazmuni, ishlab chiqilgan tavsiyalardan umumta'lim maktablarida musiqa darslarini o'tishda foydalanish mumkin. Tadqiqotda musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish yo'llari belgilab berildi.

**Ishning ommalashganligi** : Tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlar mazmuni A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti professor o'qituvchilari va talabalarining an'anaviy , ilmiy- amaliy konferensiyalarida (2012-yil, 2013-yil) qilingan ma'ruzalarda, SamDU bo'lib o'tgan 2012-yil 28-noyabr- 1-dekabrda Respublika ilmiy konferensiyasi to'plamida chop etilgan maqolalarda e'lon qilingan. Dissertatsiya ishi mavzusida jami 4 ta ilmiy, uslubiy maqolalar chop etilgan.

**Tadqiqotning metodologik asosi sifatida.** O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, OvaO'MTVning ta'lim-tarbiyaga oid farmonlari, dasturiy-meyeriy hujjatlar, umumiy urta ta'limning musiqa fani buyicha DTS va o'quv dasturlari, shuningdek, pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik fanlari ,musiqa ta'limi nazariyasiga oid materiallariga tayanildi.

**Dissertatsiya tarkibiy tuzilishi.** Dissertatsiya ishi uch bob, olti poragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

**1-BOB: Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.**

## **1.1 O'quvchilarning musiqa madaniyatini shakllantirishda musiqiy-nazariy bilimlarning o'rni va ahamiyati.**

Mustaqil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tarbiya tizimida o'zining samarali natijalarini berayotganligi, bu holatni hatto dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganligi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida olib borilayotgan demokratik jamiyat qurish yo'lidagi islohatlarni to'g'ri ekanligini ko'rsatmoqda. Prezident I.A.Karimovning " ... farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ta'lim-tarbiya masalasi, hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi"- degan so'zlarida O'zbekistonda yosh avlodni tarbiyalash borasidagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati o'z ifodasini topgan. Bu borada qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", umumiy o'rta ta'limining Davlat ta'lim standarti, maktab-ta'limini rivojlantirish davlat dasturi, "Yoshlar yili" davlat dasturi kabilarning ta'lim-tarbiyani sifati, samaradorligini oshirish, uni fan – texnikaning eng so'nggi yutuqlari negizida takomillashtirib borishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublika Prezidentining "Bolalar musiqa maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy -axloqiy va madaniy saviyasini yuksaltirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni o'zbek xalq musiqa ijodiyoti va jahon musiqa madaniyatining yuksak mahsuli bo'lgan namunalaridan keng bahramand bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va shu asosda musiqa ta'limini yanada rivojlantirish, bu borada kadrlar tayyorlash tizimini sifatini takomillashtirish vazifalari o'z ifodasini topgan.

Bunday imkoniyatlarning yaratilishi, birinchidan o'quvchi yoshlarning musiqa san'atiga muhabbat va qiziqishlarini oshirib, ularda amaliy ijrochilik bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun keng yo'l ochib

beradi. Ikkinchidan, musiqa san'atining tarbiyaviy ta'siri, badiiy-estetik g'oyalari asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, ahloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shu jihatdan qaraganda umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "Musiqi madaniyati" fani o'quvchilarni ma'naviy, badiiy-estetik kamolotida muhim o'rin tutadi. Musiqa darslarida o'zlashtiriladigan kuy-qo'shiqlarni ongli ijro etishlari, ularning nazariy asoslari haqida yaratilish tarixi, mualliflari, uslublari, xarakteri, janriy xususiyatlari, tuzulishi va shu kabi xususiyatlarini ongli tushunib, shu asosda yondashib o'rganishlari uchun xizmat qiladi.

Musiqani nazariy amaliy ijrochilik tomondan bir butunlikda, uzviylikda o'zgartirib borish o'quvchilarni kelgusi faoliyatida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham musiqa darslarini olib boruvchi o'qituvchilar eng avvalo, musiqa nazariyasi va metodikasidan yuqori malaka ega bo'lishlari talab etiladi. Dars jarayonida har bir mavzu mazmunida o'zlashtirish lozim bo'lgan musiqiy, musiqiy-nazariy bilimlarni mazmun va mohiyatini anglagan holda musiqa ifoda vositalari (ifoda "til") musiqa adabiyoti bilan yaqindan tanishib borish o'quvchilarni hayotni musiqiy obrazlar orqali qanday aks etishi haqida zarur tushunchalarni egallashlariga, musiqiy tasavvur, obrazli his etishlariga olib keladi. Musiqa tarixini bilish, xalq musiqasi, musiqa asosiy yo'nalishlari, janrlari, uslublari, bastakor va kompozitorlar ijodlari bilan tanishish, musiqa asarlarini nota yozuvida o'qish, solfedjiolash, notaga qarab kuylash o'quvchilarda tom ma'noda "musiqa madaniyati"ni shakllanishiga, musiqiy ong va dunyoqarashlarini kengayishiga olib keladi. Har bir dars o'quvchilarni nafaqat qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa nazariyasiga oid bilimlarni o'zlashtirishiga, shu bilan bir vaqtda vokal -xor malakalarini, xor bo'lib kuylash, ansambllik, sozlanish, musiqa ifoda vositalari (tonallik, o'lchov, temp, dinamik belgilar dirijyorlik ishoralari)ni tushunib, rioya qilib kuylash hamda musiqa asarlarini tahlil qilish malakalarini egallashlari nuqtai- nazaridan tashkil etilmog'i va bosh maqsad qilib belgilanmog'i lozim.

Ta'limning barcha bo'g'larida bo'lgani kabi umumiy o'rta ta'lim musiqa darslarini ham o'ziga xos didaktik talablari, o'qitish metodikasi mavjud. Dars jarayonida musiqa tarbiyaviy ta'siriga erishish, o'quvchilarda kuylanayotgan, tinglanayotgan asarlarga qiziqish o'yg'otish, musiqa idrok etish yo'lida o'quvchilarda musiqiy –badiiy obrazlarni yoritib beruvchi ifoda vositalarini o'rganishga nisbatan intilish va faollikni tarbiyalash, musiqiy ta'lim metodikasini belgilashda yetakchi mezon xisoblanadi. Shu bilan birga musiqa o'qitish metodikasi xususiy vazifalarda – qo'shiq o'rganish, qo'shiqni oson o'zlashtirishga imkon beruvchi, shu maqsadda qo'llaniladigan metodik mashqlardan unumli foydalanish, qo'shiq matni ustida ish olib borish kabilarni ham qamrab oladi.

Bizga ma'lumki “musiqa madaniyati” darslari bir necha faoliyatlar negizida tashkil etiladi. Bu faoliyatlar tarkibida qo'shiq (jamo bo'lib) kuylash, musiqa tinglash va musiqa savodi yetakchi faoliyatlar xisoblanib, o'quvchilarga dastur va darslik bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim va tushunchalarni yetkazishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu o'rinda musiqa savodi faoliyatida amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim deb topamiz.

Musiqa madaniyati darslarining musiqa savodi faoliyatida asosiy maqsad o'quvchilarni nazariy (musiqaning elementar) qoidalarini, ya'ni nota yozuvi bilan bog'liq ifoda vositalarini o'zlashtirib borishlariga asoslanadi. Musiqa savodi faoliyatida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat o'quvchilarning musiqiy tafakkur va musiqiy dunyoqarashi, musiqiy xotira, musiqiy idrokini shakllanishiga xizmat qiladi. Bu faoliyatda o'quvchilar musiqa asarining yaratilish tarixi, musiqa ifoda vositalari, ritm, metr, o'lchov, registr, lad, temp, nota yo'li, nota cho'zumlari, tovushlar balandligi, sanalishi, ijodkorlari, ijrochilari haqidagi bilimlarni o'zlashtiradi.

Darsda belgilangan pedagogik maqsadlar, musiqiy faoliyatlar uzviy yaxlitlikda olib borilganda o'quvchilarda musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni samarali kechadi.

Bu o'rinda:

- Musiqiy qobiliyatlarni riojlantirish;

- O'quvchilarning musiqani idrok etish malakalarini o'stirish;
- Qo'shiq kuylash malakalarini (vokal-xor) rivojlantirish;
- Musiqa nazariyasi asoslarini (elementar qoidalarini) o'rganish;
- Musiqiy ritmni xis etish, unga mos xarakterlar bajarish orqali musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsida ijodiy tafakkurni shakllantirish;
- Musiqaning g'oyaviy-badiiy mazmuni vositasida o'quvchilarda musiqiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va ahloqiy tarbiyani amalga oshirishga erishiladi. Natijada o'quvchilarda musiqa asarlari haqida mushoxada yuritishning boshlang'ich asoslari vujudga keladi.

Masalan, qo'shiq kuylash faoliyatini qarab ko'raylik: Biror qo'shiqni o'rgatishdan avval o'qituvchi shu qo'shiqning ijodkorlari haqida ma'mulotlarni o'quvchilar e'tiboriga yetkazadi. Bu yerda musiqa savodi faoliyatning bir bo'limi - musiqa tarixi ishtirok etadi. Qo'shiq nota yozuvi bilan doskada aks ettiriladi, yoki plakat osib qo'yiladi. Qo'shiq o'qituvchi ijrosida yoki magnet yozuvida o'quvchilarga eshittiriladi. Shu tariqa musiqa tinglash faoliyatiga duch kelinadi. Qo'shiq tinglangandan so'ng u haqida o'qituvchi suxbat yo'li bilan eng muhim jihatlari haqida tushuncha beradi. Bunda asarning xarakteri, ifoda vositalari, janri, qanday jamoa uchun yozilganligiga e'tibor qaratiladi. Bu yerda o'z-o'zidan musiqa asarlari taxliliga oid bilimlarga tayaniladi. So'ngra asosiy qism – qo'shiqni o'rganish jarayoni boshlanadi.

O'rganilayotgan qo'shiq yaxshiroq idrok qilinishi uchun qo'shiqning ma'no va mazmuniga mos ritmik xarakterlar bajarish-chapak chalib jo'r bo'lish, raqs elementlarini bajarish dars samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarni musiqiy madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyatli kechishi uni boshlang'ich sinflarda qay darajada uyushtirilganligi va o'qituvchining pedagogik, metodik maxoratiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. O'qituvchi maxorati deganda uning o'quvchilarda darsga nisbatdan estetik zavq uyg'ota bilishi, qiziqtirishi ko'zda tutiladi. Buning

uchun o'qituvchi o'quvchilarni musiqa savodiga musiqa tinglashga, kuylashga o'rgatishi lozim. O'qituvchi xar bir darsning va darsdagi jarayonlarning o'quvchilar tomonidan ko'tarinki ruhda, qiziqishi va ishtiyoq bilan qabul qilishiga erishish zarur. Shundagina musikiy-estetik ta'lim, xususan, uning nazariy asoslarini urganish samarali kechadi.

Ushbu takidlab utilgan shartlarni bajarish musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi va kelajakda yangi usul va uslublar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Shu bois musiqa o'qituvchisi musiqa darslarini barcha faoliyatlarida amalga oshiriladigan vazifalarni jiddiy taxlildan o'tkazib, e'tibor qilinadigan jixatlarini aniqlab ish tutishi kerak bo'ladi.

1. Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur va musiqiy dunyoqarash, musiqiy xotira, musiqiy idrok shakllanadi, bu faoliyat turida o'quvchilar musiqaning yaaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalarini o'zlashtiradilar.
2. Qo'shiq kuylash faoliyatida o'quvchilar musiqiy-nazariy bilimlarga asoslangan xolda qo'shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taalluqli barcha ma'lumotlarni o'zlashtiradilar.
3. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash rivojlanadi. Bu faoliyatda o'quvchilar musiqa tinglar ekanlar bevosita uni idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy idroklarini rivojlantiradi.
4. Musiqaga mos ritmik xarakterlar bajarish va bolalar musiqa asboblarila jo'r bulish (musiqiy ijodkorlik) faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy xotira shakllanadi.

Bu faoliyat turida uquvchilarda deyarli musiqiy psixologik xususiyatlarning barchasi shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zlari bevosita musiqiy asarga jur buladilar.

Xozirgi kunda musiqa katta-kichik xar bir insonning xayotiga juda chuqur kirib borgan san'at turidir. Xar qanday musiqa u qaysi mavzu, janr, xarakterga ega bulmasin uzining uziga xos xususiyatlariga ega bulib, u eng avvalo inson xayotiga ko'rinishlar va voqyelikdagi xayoliy tomonlarni ayrim lavxalarini o'zida aks ettiradi. Unda ijodkorlarning ichki olami, falsafiy, ma'naviy, estetik tafakkuri,

fantaziyasi, tuyg'u va kayfiyati asosiy obrazlilikni ifoda etadi. Musiqada san'atning boshqa turlari, deylik tasviriy san'at, haykaltaroshlik, amaliy san'at kabilardan farqli tarzda dunyoning rangli tasvirlari, tasavvurlari emas, balki inson tuyg'ulari va kayfiyatlari yetakchi rol o'ynaydi. Ammo, unutmaslik kerakki, musiqiy tuyg'ular xayotiy tuyg'ularning aynan o'zi bo'lmay, ular tanlab olingan, tasodifiy lahzalardan umumlashma tasavvurlar hosil qiluvchi, muayyan nuqtai-nazardan anglangan bo'ladi.

Musiqqa inson hissiyotlari holatining barcha rang-barang tovlanishlarini aks ettirish imkoniyatini beqiyosligi bilan o'ziga xos o'rin tutadi. U eng murakkab tuyg'ular, eng nozik kechinmalar va kayfiyat holatlarini ham ifoda eta oladi. Musiqqa asarlari voqyelikni aks ettirishda vaqt mezoniga amal qiladi., kechinmalarning o'zgarib turishi, tasvirni kuchli, kuchsiz hissiyotlar tomon kuchayib, pasayib, o'ziga xos dramatik ko'rinish olinishi uning badiiy emosional ta'sirchanlik kasb etishini kuchaytiradi.

Musiqqa, inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari bilan birga ma'naviy olamini butunligicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit badiiy qiyofasini yarata oladi. U ruhiy tizim xususiyatlarini ifodalash, inson ruhiy kechinmalarini kuchaytirish imkoniyatiga ham ega.

Psixologiya fanida e'tirof etilishiga ko'ra voqyelik ta'siri ostida paydo bo'ladigan sezgi va idrok hissiyotining asosiy manbai xisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarda bosh miya va sezgi organlarining taraqqiyoti yetarli darajada shakllanmaganligi uchun ularda sezuvchanlik bir muncha ta'sirli bo'ladi.

Musiqani to'la to'kis idrok etish uchun diqqat, xotira va musiqiy tafakkur zarur va juda muhimdir. Shunday holatdagina inson tasavvuri yordamga keladi va etetik xissiyot shakllanadi. Ulardan ma'lum bo'ladiki, musiqiy asarni to'liq idrok etish uchun inson ruxiy faoliyati hilma-hil bo'lmog'i lozim. Tizimli yo'naltirilgan ta'lim jarayonida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishdan maqsad o'quvchilarning musiqiy asarining lad, o'lchov, sur'at,(temp), dinamika, registrlarni o'zlashtirishlari emas, balki musiqaning barcha ifoda vositalari orqali ularda inson shaxsigagina xos bo'lgan hissiy qabul qilish, idrok etish, tasavvur

qilish, anglash, farqlash, baho berish kabi xususiyatlarini ijodiy qobiliyat, erkin yo'naltirilgan diqqat, musiqiy xotira, tasavvur, faollikni, tashabbuskorlikni shakllantirishdir.

O'quvchilarning xissiy anglash, sezish, tasavvur qilishlarini o'ziga xoslik xususiyatlaridan biri uning muayyan sharoit bilan bog'liqligidir, ya'ni bolalarda sodir bo'ladigan xissiy kechinmalar aniq bir sharoitdagina (masalan dars mashg'uloti jarayonida) vujudga keladi. Shunga ko'ra ularni qiziqtiradigan, diqqatlarini muayyan nuqtaga jalb etadigan sharoitni yaratish, ularda estetik xissiyotning, musiqiy madaniyatni o'stirishning eng muhim shartidir.

Musiqqa ma'lumotlari jarayonida o'quvchilar bir-bor musiqqa asarini tinglar ekanlar ular eng avvalo musiqaning rang-barang oxanglari (tovushlari), ifoda vositalarini (temp, ritm, kuy, o'lchov, registr, dinamika, lad va xokozolar), xarakter va kayfiyatni farqlashni, eshitilgan musiqiy asarlarning qaysi janrga mansubligini, xalq (folklor), mumtoz estrada yoki boshqa musiqalarni bir-biridan farqlay olishni xissiy emosional jihatdan idrok etib boradilar, boshqacha qilib aytganda, ularning musiqiy didlari, madaniyatlari shakllana boradi. Musiqiy idrok, musiqiy did, musiqiy dunyoqarashning rivojlanib borishida musiqqa ta'limi va tarbiyasini sinf va sinfdan tashqari, shuningdek maktabdan tashqari faoliyatlar uyg'unligida qay darajada yo'l qo'yilganligi, ularning oiladagi musiqaga munosabat, ota-onalarning va boshqa oila a'zolarining musiqaga bo'lgan munosabatlari ham g'oyat muhimdir.

Inson biror bir narsani idrok etar ekan, idrok etilayotgan narsaga nisbatan sezgi organlaridan birortasi asosiy o'ringa chiqadi. Masalan, rasm chizganda ko'rish sezgi organi, musiqqa tinglaganda eshitish sezgi organi bosh o'rinda turadi. Idrok etishda sezgi organlarining bir nechtasi bir barakay ishtirok etishi ham mumkin.

Musiqqa madaniyati darsining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biri shundan iboratki, dars davomida olib boriladigan ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatlar mustaqil jarayonlar ko'rinishida bo'lishi bilan birga, ularni bir-biri bilan uzviy aloqada o'zaro bog'liq xolda olib borish ushbu fanni o'qitilish qonuniyatidan kelib chiqadi. Musiqqa tinglash, qo'shiq tinglash, musiqiy-nazariy savodxonlik va

boshlang'ich sinflarda musiqaga ritmik jo'r bo'lish hamda bolalar cholg'u asboblariida ijro etish o'quvchilar tomonidan musiqiy-nazariy bilimlarini, ko'nikma va malakalarini to'liq o'zlashtirishiga zamin yaratadi.

Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda biror bir faoliyat birinchi o'ringa chiqib qolish ham mumkin. Lekin darsning tuzilishi musiqiy ijrochilik bilan bog'lanadi. Aynan mana shu ijrochilik, ya'ni qo'shiq (xor bo'lib) kuylash malakalarini (vokal-xor malkalari) egallash uchun nota yozuvi, dinamik belgilar dirijyorlik qoidalaridan xabardor bo'lishlari zarur. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda jamoatchilik, do'stlik, birdamlik, hamjixatlik fazilatlari shakllanadi. Bu jarayonda butun sinf jamoa bo'lib, bitta organizmga birlashib, darsda ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqa qobiliyati nazariy savodxonligi past bo'lgan o'quvchilar faol, yaxshi musiqiy qobiliyatga va nazariy savodxon bolalarga ergashadilar.

Nazariy savodxonlik dars materiallarini u qaysi faoliyatda bo'lmasin yaxshi o'zlashtirishda asosiy omil sanaladi.

Bu biz bir amaliy misolda ham ko'rishimiz mumkin: (Amaliy dars ishlanmasi)

Darsning mavzusi: Musiqaning ifoda vositalari

Darsning turi – fanlar aro bog'liqlik .

1. Ta'limiy maqsad: musiqaning ifoda vositalari haqida tushuncha berish, ovoz sozlash mashqlarini basharish, yangi qo'shiq o'rgatish, musiqiy asar tinglash, taxlil qilish, oldingi o'tilgan mavzularni takrorlash va mustaxkamlash.
2. Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarning musiqiy idroki, musiqiy did, dunyoqarash va estetik madaniyatini shakllantirish. Musiqa asarlarini idrok etish va ular haqida bilimiga qiziqish uyg'otish, qo'shiqning g'oyaviy-badiiy mazmuni vositasida ahloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Adabiyotlar-darslik, qo'shiqlar to'plami.

Darsning borishi:

1). Sinfni uyushtirish;

A) Musiqiy kirish;

B)Yo'qlama qilish;

V) Dars mavzusini e'lon qilish;

2). Amaliy ishlar:

A) ovoz sozlash mashqlari;

B) notaga qarab kuylash;

3). Yangi materialni o'tish:

A) qo'shiq mavzusini e'lon qilish;

B) qo'shiq haqida qisqacha suhbat;

V) qo'shiqni jummalarga bo'lib o'rgatish;

4). Musiqa savodiga oid bilimlarni o'zlashtirish;

5). Musiqa tinglash- taxlil qilish;

6). Bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish va ritmik xarakterlar bajarish.

7). Ijodiy vazifalar: mustaqil tarzda kuyga jo'r bo'lish uchun qaysi cholg'u mosligini aniqlash, lad-tonalligi haqida tushuncha berish, unga tavsif berish, asarning janrini aniqlash;

8). O'tilgan mavzuni mustahkamlash;

9). Uyga vazifa berish; qo'shiq matnini yodlash musiqaning ifoda vositalariga mos misollar yozib kelish.

Ko'rinib turibdiki, birgina dars davomida bajariladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar ko'lami ancha katta. Buning uchun musiqa darslaridagi ko'pgina ishlarni darsdan tashqari faoliyatda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ko'rinadiki, dars jarayonida o'qituvchining asosiy maqsadi o'quvchilarga musiqiy ta'lim berish, eng muhimi o'quvchilar bilan musiqiy muloqotda bo'lish orqali ularni musiqani sevish, shu orqali o'quv materiallarini to'liq o'zlashtirishlariga erishishdir.

O'qituvchi o'zining hamda o'quvchilarning dars davomida qiladigan ta'limiy – tarbiyaviy xatti-xarakterlarini xar xil, qiziqarli usullarini ishlab chiqishi uchun qo'yidagilarni bilmog'i zarur.

- Musiqa darslarida musiqiy faoliyatlarni uyushtirish shakllarini;
- Dastur mazmunini, uning g'oyaviy-nazariy asoslarini, didaktik prinsiplarini;

- O'quvchilarning psixologik – fiziologik va individual, yosh xususiyatlarini;
- Musiqa darslarida o'rganiladigan asarlarning badiiy xususiyatlari, tarbiyaviy ta'sirchanlik jihatlarini;
- Maktabda va maktabdan tashqari faoliyatdan olib boriladigan mashg'ulotlarning samarali va usullarini tanlashni;
- Darsni konstruksiyalash: reja- konspekt tuzish, kerakli musiqa asarlarni repertuarni to'plash, boshqa kerakli uslubiy manbalarni xozirlash;
- O'quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni ochib borish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijrochilikga xos musiqiy faoliyatlarni uyushtirish (konsertlar, ko'rik-tanlovlar uyushtirish);
- O'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlarni yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish va xakozo.

Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, musiqa darslarida musiqaning qanday faoliyat turi qo'llanilmagan, u o'quvchilarning barcha musiqiy qobiliyat va iqtidorlarini rivojlantirishga, musiqiy va musiqiy –nazariy bilimlarni puxta va dastur talablari, o'quvchilar bilan va malakalariga qo'yiladigan standart talablari darajasida egallashlariga qaratilmog'i lozim. Shuning uchun musiqa o'qituvchisi har bir faoliyat mazmunida o'zlashtiriladigan yo'nalish, bilim, malakalarni muxim nazariy muhitdan asosli tarzda o'zlashtirish nuqta-nazardan yondoshmog'i va bu uning bosh maqsadiga aylanmog'i zarur. Bunda dars mashg'ulotlarining xar bir faoliyati musiqa darslarining maqsad va mazmunini o'zida aks ettirishiga qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatini yaratishga xizmat qilmog'i lozim.

## **1.2. O'quv faoliyatlar jarayonida o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarini shakllantirish.**

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari oldida har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdek muhim vazifa turibdi. Bu vazifani bajarishda san'atning barcha turlari qatori musiqa ta'limi va tarbiyasining o'rni beqiyosdir.

Maktab musiqa madaniyati darslarida bolalarga xos musiqa tanlash, ko'shiq kuylash, musiqa jo'rligida xar hil xarakterlar bajarish, bolalar cholg'u asboblarida

chalish, turli tadbirlarda qatnashish kabilar musiqaviy faoliyatni mazmunini tashkil etadi. Ayniqsa birinchi sinfga qadam qo'ygan bolalarning quvnoq musiqalarni zavq-shavq bilan tinglashi, musiqa asboblarini qiziqib chalishi, qo'shiqlarni berilib ijro etishlari ularda musiqaga bo'lgan qiziqishini tarbiyalash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning eng muhim qismlaridir. Musiqani faol ravishda tinglash o'quvchilarda o'ziga xos badiiy nafosatni hamda ijrochini malakalarini shakllantiradi. Musiqa tinglangandan so'ng u qanday o'quvchining taxliliy suhbatlari, o'zaro fikr almashinuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda musiqadagi obrazlarni, uning g'oyaviy-badiiy mazmunini, musiqaning o'ziga xos ifodaviylik xususiyatlarini anglash, ya'ni musiqani ongli idrok etish malaka va ko'nikmalarini keltiradi hamda shakllantirib boradi. Shuning uchun o'qituvchi tinglash va kuylash uchun asarlar tanlashda nixoyatda extiyotkorlik bilan ish tutmog'i lozim.

Musiqa asarlarini ijro etish, tinglash, kuylash hamda uni ongli idrok etish xissiy va ruhiy kechinmalar bilan chambarchan bog'liq ravishda sodir bo'ladigan murakkab pedagogik va psixologik jarayondir. Uning ta'siri ostida bo'ladigan har qanday xissiy, badiiy emosional kechinmalar esa ayniqsa yosh bolalar qalbida o'ziga xos yuksak va oliyjanob xis-tuyg'ularni uyg'otadi, ularni "odamiy va mehribon" xissiy tarbiyalab boradi. "Buyuk musiqa san'atini seving va o'rganing,- deb yozgan edi atoqli kompozitor D.Shostokovich, - u sizda 25 olam jahon ulug' xislar jo'shqin fikrlar uyg'otadi. U sizni ruxan boyitadi, pok qiladi, kamolga yetkazadi. Musiqa tufayli siz o'zingizga yangi kuch sezasiz,- u sizni barkamol inson darajasiga yaqinlashtiradi." (D.Shostakovich. Znat i lyubit muzyku .- M...1973g 19 str.)

Xar bir san'at singari musiqa san'atini tushunish va idrok eta olishga erishish uchun kishi ma'lum badiiy va umumiy kamolot darajasiga erishgan bo'lmog'i lozim. Ma'lum bir musiqa asarida voqyea va xodisalar, yoki ayrim bir syujetli lavxalar qanchalik keng, chuqur va ta'sirchan ifodalangan bo'lsa, uni to'laligicha idrok etish va tushunish uchun kishida shunchalik maxsus tayyorgarlik, zaruriy ma'lumot va aqliy kamolot talab etiladi.

Ulug' allomalardan biri aytganidek "san'atdan zavqlanishni istagan har bir kishi badiiy jixatdan ma'lumotli bo'lmog'i lozim." Aks xolda musiqa asarini tinglashga ko'nikmagan quloq uchun eng go'zal musiqa ham ma'nosiz bir narsa bo'lib qolaveradi.

Ma'lumki yosh bolalarga o'z hayotlarida musiqa bo'yicha chinakam maqsadli, sistemali ilmiylikka asoslangan musiqiy ma'lumotlar maktabda beriladi. Barcha fanlarda bo'lgani kabi bolalarning musiqa san'atiga bo'lgan xavas va qiziqishlari, unga bo'lgan munosabatlari mana shu yerda, ya'ni maktabdagi ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanib boradi.

Inson faqat yoshlik yillaridagina ona tilini, xam musiqa madaniyatini, savodini, kuy go'zalligini idrok etish, tushunish, xis etish, zavqlanish qobiliyatini egallab oladi, - degan edi mashxur pedagog V.A.Suxomlinskiy. ... Agar xuddi shu yoshlik chog'idanoq bola qalbiga musiqiy tovushlarda ifodalangan inson xis-tuyg'ularini, uning ko'p qirrasini ma'nolarini sezsa, u hych qanday o'zga vositalar bilan erishib bo'lmaydigan madaniyat cho'qqisiga ko'chiriladi.

Umumta'lim maktablari birinchi sinflaridan boshlab o'quvchilarga beriladigan musiqiy bilim va malakalari ularning keyingi estetik rivojlanishlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, xar bir musiqa o'qituvchisi shuni unitmasligi kerakki, xar musiqa mashg'uloti quruq ko'shiq kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash faoliyatlaridan iborat bo'lib qolmasligi, mana shu jarayonda asosiy e'tibor o'quvchilarni musiqani eng birinchi galda mazmunini, nazariy va badiiy xususiyatlarini anglab, tasavvur etib, ongli idrok eta olishlariga qaratilmog'i kerak, o'quvchi mana shunday malakaga ega bo'lib bormasagina u o'zi tinglagan, kuylagan musiqiy asar haqida fikr bildiradi. Unga o'z munosabatini ifodalab bera oladi.

Musiqani tushunish tarbiyaviy-tarsirchan g'oyaviy-badiiy mazmunini xis etish va baxramand bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalar qatori o'qituvchining musiqani bolalarga qanday o'rgatish va tinglash faoliyatini tashkil qilish mahoratiga ko'p jixatdan bog'liqdir. Musiqiy asarlarni ijro etish bilan uni idrok etishda eng avvalo o'quvchilarni darsga qiziqtirishga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda tinglash va kuylash

uchun tanlanadigan asarlar repertuarini asosiy mezonni o'quvchilarning yoshi, qiziqish, bilim va ko'nikmalari darajasiga muvofiqligi, tematikaning rang-barangligi, g'oyaviy-badiiy sifati hamda pedagogik ximmati bilan belgilanadi. Bu o'rinda ayniqsa o'quvchilarning yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, shakli hamda mazmuni bilan go'zal va xayotbaxsh, nafis, sho'x, xushoxang asarlarni tanlash lozim. Mana shunday asarlar o'quvchilarda musiqa asariga va darsga faol qiziqish uyg'ota oladi.

O'quvchilarni musiqani tinglash va uni idrok etishga tayyorlash uchun hozirgi kunda maktablarda qanday ishlar olib borilayapti? Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu borada –hali muammolar talaygina shuni alohida ta'kidlash joizki, musiqa ta'limi tizimida musiqa tinglash ta'limning asosiy mazmunini tashkil etadi. O'quvchilar asar tinglash jarayonida yakkanavoz va jo'mavozni ajrata bilishlari, cholg'u sozlarini uni oxangidan farqlashlari, kuyning yuqoriga –pastga nisbatan tuzilmasini, dinamikasini, ansambl ijrosini, anglay olishlari zarur.

Musiqa tinglash darsning barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshadi. Demak, musiqa tinglash orqali o'quvchilarda musiqa asarini, unga tasvirlangan badiiy mazmunini obrazli tarzda xis etish bilan xayotni, borliqni estetik idrok etish, anglash va bilim qobiliyati rivojlanib boradi. 1-sinf darslaridan bu maqsad va vazifalarni bajarishga kiritilib borilsa, o'quvchilarning musiqiy asarlarni badiiy-g'oyaviy jixatdan mantiqan to'g'ri idrok etishga o'rgatish mumkin. Bu faoliyat natijasida esa asta –sekinlik bilan o'quvchilarga musiqiy did va tafakkur, musiqiy dunyoqarash va estetik madaniyat shakllanib boradi. O'quvchilar tomnidan musiqani sevish, musiqiy asarlarni sevib tinglash, ularning qadriga yetish, va pirovard natijada musiqani ongli idrok etish, baxolashga qulay sharoit yaratiladi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va kasbiy pedagogik mahoratiga ko'p narsa bog'liq bo'lib, pedagogik va psixologik fanlardan o'tkazilgan tadqiqotlar xam buni tasdiqlaydi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (boshlang'ich ta'lim. Ta'lim taraqqiyoti, maxsus son, 1997y) ning asosiy talablari,

ya'ni o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar musiqa fani bo'yicha quyidagicha ta'riflanadi:

- Xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'lish;
- Cholg'u asboblari bilish va tovush tembrlaridan ularni farqlay olish;
- Musiqaga oid oddiy atamalarni bilish;
- Nota yozuvlarini bilish va amalda qo'llay olish;
- Birgalikda va yakka holda kuylay olish;
- Musiqaning ifoda vositalarini bilish;
- Ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olish;

Ko'rinadiki, **1- sinfdan** boshlab musiqa madaniyati darslarini barcha sinflarda mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifalariga bu talab va mezonlar bevosita aloqadordir va butun musiqiy ta'lim jarayonini bu talab va mezonlarsiz tashkil etib bo'lmaydi. Xo'sh bu talab va mezonlarni amalga oshirish mexanizmi yoki pedagogik texnologiyasi qanday bo'ladi? Biz o'z tadqiqiy izlanishlarimiz davomida bu savolga bir qadar bo'lsada javob topishga muvoffiq bo'ldik va qo'shiqda ular to'g'rsida batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Boshlang'ich sinflarda, xususiyl birinchi sinflardan boshlab o'quvchilarga musiqa tarbiyasini berishning eng muhim vazifalaridan biri bolalarda musiqaga qiziqish va muhabbatni o'stirish, musiqadan estetik xuzurlanish, uning xayotiy mazmunini tushunish, ya'ni idrok etishga o'rgatishdan iboratdir. Estetik idrok etish ko'nikmalari o'ziga xos psixologik omil bo'lib o'z navbatida ongli idrok musiqa xaqida fikrlash, mushoxada qilish va unga o'z munosabatini bildirish malakalarini paydo qiladi. Birinchi sinfga kelgan bolalar xali musiqani to'la-to'kis o'zlashtirib ololmaydilar, xayotda ular o'zlari guvox bo'lishgan, shuningdek musiqa asarlarida tasvirlanayotgan obrazni o'z onglarida aks ettiraolmaydilar. Ayni paytda ular umumiy kayfiyatini, musiqani sho'x yoki jiddiy, sokinligini osongina aniqalay oladilar. Musiqa darslaridagi dastlabki mashg'ulotlardan ularga eng oddiy musiqa ifodalarini, sur'atni, ritmik jo'shqinlikni registrarni payqashga o'rgatish lozim.

Bolalarning musiqani idrok etishini –musiqaning va musiqa tarbiyasining asosini rivojlantirish uchun ularga tez-tez xox jamoaviy ijrochilikda, xox cholg'u

musiqasida ifodalangan xilma-xil janr va mavzulardagi kontrast mazmun va badiiy tuyg'ularni amalda xis etishga odatlantirish kerak. Bu esa birinchi navbatda musiqa tinglash faoliyatini to'g'ri tashkil qilishga bog'liq bo'ladi. Musiqa tinglashsiz musiqa madaniyatini tarkib toptirish, musiqaning ifoda vositalarini o'rganish, musiqa asarlariga muxabbat uyg'otish xaqida so'zlash noo'rindir. Bu sifatlarni shakllantirishda musiqa tinglash asosiy va hal qiluvchi zamindir.

Musiqa tinglash jarayonida o'quvchilar turli bastakor va kompozitorlar asarlaridan namunalar tinglaydilar. D.Shostakovich ta'biri bilan aytganda "Musiqani sevish uchun avvalombor uni tinglash kerak."... vatan, do'stlik, tabiat, o'yinchoqlar, xayvonlar, mexnat va boshqa jismoniy va aqliy faoliyatlar mavzusidagi asarlarni tinglash o'quvchilarga ijobiy ta'sir qiladi, dunyoqarashlarini o'sishiga xizmat qiladi. O'quvchi tinglangan musiqa asari haqida birorta savol bermasa, yoki unga nisbatan emosional ta'sirni sezmasa, unda ozgina biror xissiyot vujudga kelmasa, shaxsiy xissiyot va munosabat bilan bog'lanmagan xabar tarzidagi aloqagina paydo bo'lsa, demak vazifa bajarilmagan, masqadga erishilmagan bo'ladi.

Musiqa asarlarini idrok etishning ikkinchi bosqichida o'quvchilar asar xaqidagi o'z taassurotlarini, fikrlarini aytish, uning g'oyaviy-badiiy mazmuniga baxo berishi, asarning xarakterli xususiyatlarini taxlil qilish kerak. Musiqa tinglash jarayonida yakkanavoz va jo'rnavozlikni ajrata bilish, cholg'u sozi va cholg'ular tembirini ajrata olish, musiqiy didni rivojlantirish, o'zbek xalq va zamonaviy, qardosh xalqlar va jaxon klassik bastakorlari asarlaridan namunalar xaqida ma'lum tushunchalarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi.

O'quvchilarning musiqani qabul qilish malakalarini shakllantirish, uning ifodaviy tilini tushunish, xar bir o'quvchining sevimli musiqiy asarlar doirasini paydo qilish, ularda musiqa asarlari mualliflariga nisbatan minnatdorchilik xislarini uyg'otish milliy va mumtoz musiqaga nisbatan qiziqish va muxabbat uyg'otish lozim.

Boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash, (musiqa idroki shu asarda shakllanadi) bo'yicha qo'yiladigan pedagogik talablar asosan ikkita yo'nalishni o'z ichiga oladi.

1. Xar xil mazmundagi va xar xil mualliflar asarlari bilan tanishish, musiqiy zaxira to'plash;
2. O'qituvchining taxliliy suhbatlari orqali musiqiy termin tushunchalarni o'zlashtirish, musiqaning asosiy ifodalovchi vositalari xaqida, musiqa badiiy mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi elementlar xaqida boshlang'ich tushunchalarni egallash.

O'quvchilar oilada, radio, televideniye orqali shuningdek jamoatchilik joylarida musiqa bilan doimo yaqin aloqada bo'ladi, ya'ni o'quvchilarning hafta davomida tinglaydigan musiqa ko'lami haftada bir marta o'tiladigan bir soatlik darsdan bir necha barobar ortiq bo'ladi. Ammo, ular tinglaydigan musiqa asarlarining xammasi xam ularning yoshi va idrok etish malakalariga mos emasligi va ular bu musiqalarni xamma vaqt xisobga olish lozim. Shuning uchun ham musiqa madaniyati darslaridagi musiqa tinglash jarayonlari o'quvchilarning xayotidagi boshqaruvchi va o'ziga xos pedagogik tamoyillarga muvofiq, badiiy axloqiy tarbiya beruvchi vosita sifatida qo'llanishi lozim.

Katta tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar va musiqa pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish pedagog olimlarning fikrlarini taxlil qilish shuni ko'rsatdiki, musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimidagi darslarni, xususan 1-sinfdan boshlab musiqa darslarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishda tinglanadigan asarlarni tuzilishi, badiiy-g'oyaviy mazmuni va ularni bolalar yoki xususiyatlariga mosligi va ta'sirchan ijrochi xal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan ularning xulosalariga ko'ra musiqa tinglash jarayonini quyidagi bosqichlarda bo'lishi mumkin:

1. Tinglanadigan asar xaqida o'qituvchining kirish so'zi (bunda o'quvchilarga musiqa janri, tuzilishi nima haqidaligi, mualliflari, asarni yoritish tarixi haqida so'zlab beradi.)
2. O'qituvchi ijrosida yoki texnik vosita orqali musiqani tinglash.
3. Tinglangan asarni suhbat munozara va baxs bilan musiqiy va g'oyaviy –badiiy jihatdan oddiy taxlil qilish.

4. O'quvchilarni tushunchalari va musiqani qay darajada idrok etishini bilish uchun ular qisqa-qisqa savollar berish bilan aniqlab borish.
5. Musiqiy asarni qaytadan to'la xolicha tinglash hamda asar haqida o'quvchilarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish.

Ta'kidlab o'tilgan bosqichlar bo'yicha ma'lumotlarni yo'lga qo'yish va ularga amal qilib, mavzu jixatdan o'quvchilar hayotiga oid bo'lgan, turli xarakterdagi musiqa asarlarini tinglash va asarlarni yaratuvchilari-xalq, bastakor, kompozitorlar hayoti, ijodi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish kuzlangan maqsadga erishishning eng yaqin va qulay yo'lidir. O'qituvchi har bir dars jarayonida mana shu talablarga muvofiq ish tutsa, o'quvchilarni musiqani idrok etish va taxlil qilaolish darajalarini, xolatini, kuzatib, uni mukammallashtiruvchi qulay vositalarni izlab, qo'llab borgan taqdirda asta sekinlik bilan o'quvchilar musiqani tinglash, idrok etish va unga tavsif berishga oid quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'la boradilar:

1. Musiqa asarni tinglash madaniyatini egallash (diqqat bilan, jimlikni saqlash xolda)
2. Musiqiy asarni tinglash orqali asar mazmuni va xarakterini anglash.
3. Musiqaning ifoda vositalari, janrlar (qo'shiq, raqs, asari), tovushlar (sozlar, temblarini farqlash va ular haqida tasavvurga xosil qilish.
4. Erkaklar, ayollar, bolalar ovozi, ayollar, erkaklar, bolalar xorlari, aralash xor ovozi, yakkanavozlikni eshita olish va bir-biridan farqlay olish .
5. Milliy cholg'u sozlarini, cholg'u janrlarini anglash.

Musiqa madaniyati darslarida musiqani idrok etish faoliyatini baxolash ancha murakkab bo'lib, bu birinchi navbatda o'quvchilarni tinglangan asar haqidagi taassurotlari, tushunchalarini so'zlab berish va asarga tavsif berishi orqali amalga oshiriladi. Bu o'rnida quyidagi aniqlovchi mezonlarni aloxida ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Musiqaga qiziqish va muxabbatni shakllantirish.
2. O'quvchilarning eshitish qobiliyatini, musiqaga emosional ta'sirchanlik yo'nalishlarini shakllantirish.

3. Musiqaning tuzilishi, rivojlanishi, qismlari, tembrlarini, ijroda ishtirok etish ovozlari, sozlarni farqlay olish.
4. Tovush dinamikasi, musiqa sadodagi tegishli elementar belgilarni anglash.
5. Musiqadagi o'zgarishlarini, janrlarni ajrata olish, xarakterni xis qilish va unga mos xarakterlarni bajaraolish.
6. Ritmni xis qilish, unga mos xarakterlarni bajara olish.
7. O'z taassurotlarini qisqa va lo'nda ifoda eta olish.

Endi ushbu bilim va tushunchalarni sinflar kesimida (boshlang'ich sinflar kesimida yil va chorak mavzulari mazmunida ko'rib chiqamiz)

**Birinchi-sinf.** Yil mavzusi: "Biz musiqani sevamiz" 1- chorak mavzusi "Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar" deb nomlanadi. Ushbu chorak davomida o'quvchilar musiqa savodi bo'yicha eng oddiy atamalar va tushunchalar haqidagi tasavvurlarga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi, ya'ni ular musiqiy tovushlar, baland va past tovushlar, uzun va qisqa tovushlar haqida dastlabki taassurotlarni xoli qiladilar. Bu tushunchalar kuy va qo'shiqlarni tinglash va kuylash jarayonida o'qituvchi tomonidan tushuntirish jarayonida tarkib toptiriladi.

2-chorak mavzusi "Musiqali o'yinlar, kuy va qo'shiqlari" deb nomlanadi. Chorak davomida o'rganiladigan mavzular doirasida o'quvchilarga quyidagicha nazariy bilimlarni egallashlari ko'zda tutilgan. Baland va past, uzun va qisqa tovushlarni idrok etish, turli ritmlarni xis qilish, musiqaga mos xarakter qilish (chapak chalib, oyoqda qadam tashlab ritmga tushish), musiqa xarakterini (sho'x, raqsbop tantanali) anglash kabi tushuncha va tasavvurlari mustaxkamlanadi. Do-major gammasini (o'n qator) nota chizig'idagi joylashuv o'rniga qarab kuylashga kiritadilar

---

---

---

---

---

---

---


---

---


3- chorak. “Xushnavo cholg’ularimiz” deb nomlanadi. Musiqa savodxonligi doirasida o’quvchilarga kuy yo’nalishini (xarakatini), tovushlar cho’zimini, nota chizig’iga o’rni grafik chiziqlar orqali ifodalash orqali mashqlar bajariladi. Kuy chizmasidagi uzun va qisqa tovushlar ustida chorak va nimchorak notalarni yozib kuylariga e’tibor qaratiladi.

4-chorak. “Xushnavo cholg’ularimiz”. Qo’shiq kuyini grafik chiziqlarda ifodalab, uni so’zlari bilan (plakatga qarab) kuylash, chorak va nimchorak nota yozuvlari haqida bilimlarni mustaxkamlash va bolalar cholg’u asboblarida kuyga ritmik jo’r bo’lish ko’nikmalari ustida ish olib boriladi. O’quv yili davomida oddiy dirijyorlik qoidalari “diqqat”, “auf takt”, “boshlash”, “tugallash” ko’nikmalari xosil qilinadi.

**Ikkinchi sinf.** Yil mavzusi. “Ijrochilik turlari” mavzusi Yakkanavozlik, jo’rnavorlik, jo’rsozlik deb nomlanadi. 1-chorakda musiqa savodi faoliyati quyidagicha nazariy bilim va malakalarga ega bo’lishlari ko’zda tutiladi. O’quvchilar chorak va nimchorak notalarni kuylash ustida ishlar davom ettiradilar, nota yo’li (besh parallel chiziq, ularni nomlanishi) bilan tanishadilar.



Ma’lumotlar davomida o’quvchilar “skripka kaliti” (sol kaliti), yozilishi, bajaradigan vazifasi, shuningdek “sol” tovushini nota yo’lidagi o’rni va yozilishi haqida bilib oladilar.



Skripka kaliti


sol tovushi nota yo’lida yozilishi.

2- chorak. Mavzu: “Yakkanavozlik va yakkaxonlik”. Cholg’ular va xonandalar dastalar.”

Nota savodxonligi bo'yicha nota yo'lida mi, lya tovushlarini yoshilishini o'rganadilar. Shu jarayonda tinglangan, yoki jamoaviy – jarayonida amal qilish talab qilishgan musiqaning o'zga ifoda vositalari-temb, ritm, dirijyorlik qoidalari, registr, ritmik chizimlar haqidagi bilim va tushunchalar ham rivojlantirib boriladi.

3-chorak. “Dasta turlari. Kuy nima? Kuyda nimalar ifoda qilinadi?” chorak davomida nota savodxonligi bo'yicha nota yo'lida do, lya tovushlarini yozilishi bilan tanishish talab qilinadi, o'quvchilarga asosiy 7 tovushni nota chiziqlarida yozish topshirig'i berilib, ularni bu borada bilim va tushunchalari mustaxkamlanadi.

4-chorak. Mavzu. “Musiqaning ifoda vositalari”. Musiqa savodi bo'yicha ilk bor major va minor tonalliklari, ularni asosiy uch tovushliklari kuylash bilan farqlashga o'rgatiladi. (Do-major va lya- minor misolida)




S-dur



a-moll

Shundan so'ng do-minor tovush qatorini 2/4 va 3/4 o'lchovlarida taktab kuylash mashqlari bajariladi.

1).



2).



**Uchinchi sinf.** Yil mavzusi “Musiqaning ifoda vositalari. 1-chorak. “Musiqaning ifoda vositalari.” Ayrim mashq va qo'shiq nota yozuvini kichik

qilishlarini nota yozuviga qarab kuylash. Bunda dastlab o'qituvchi yordamida so'ngra unga erishib va keyin mustaqil kuylashga o'tiladi.

2-chorak. Mavzu: "Xor va orkestr" nota savodxonligi bo'yicha aytish mashqlar va qo'shiq qimslari ustida ish olib boriladi. Major va minorni eshitib farqlashga e'tibor qaratiladi.

3-chorak. "Musiqaning tuzilishi" aytish mashqlar va qo'shiqlarni o'qituvchiga ergashib, notaga qarab oldin nota nomi bilan, so'ngra qo'shiq so'zlari bilan kuylash, major va minor ladlarini I-II-III-IV-V- bosqichlari haqida aniq bilimlarga ega bo'lish, shuningdek diyez (#) va () bemol alterasiya belgilari bilan tanishishlari lozim bo'ladi.

4-chorak. Mavzu: "Oddiy musiqa shakllari band va naqarot". Major minor uch tovushligi va butun tovushqatorni nota yozuviga qarab kuylash alterasiya belgilari diyez #, bemol -, bekar- haqidagi bilimlar ustida ish olib boriladi.

**To'rtinchi sinf.** Yil mavzusi: "O'zbek xalq musiqa ijodi".

1-chorak. "Xalq ayimlari va cholg'ulari" bunda quyidagicha nazariy bilimlarni egallash ko'zda tutiladi:

- Ton va yarim ton haqida bilimlarni mustaxkamlash;
- Lad (major va minor) haqida bilimlarni mustaxkamlash;
- 4/4 o'lchovi bilan tanishish, mashq va ayimlar misolida o'rganish;
- 2/4, 3/4, 4/4 o'lchovlarini kuchli, kuchsiz xissalariga ko'ra farqlash;
- Dirijyorlik ishoralariga qarab, uni tushunib kuylash;

2-chorak. "Bayram va marosim qo'shiqlari" nota savodxonligi –Do major, Sol-major va Iya- minor, mi- minor tonliklarini qiyosli o'rganish, tonlik haqida tushuncha xosil qilish, qo'shiqlar misolida 6/8 o'lchov bilan tanishish.

3-chorak. Mavzu: "Mavsum qo'shiqlari". Major va minor tovushlarini nota (--) nomlari va so'z bo'g'imlari (Iya, mi, do va xakozo) bilan kuylash. O'qituvchi ovozigacha jo'r bo'lib, so'ngra mustaqil ravishda Do- major, Iya -minor Sol-major, mi-minor tonalliklarini dirijyorlik qilib (2/4, 3/4, 4/4 o'lchovlarida ) kuylash.

4-chorak. Mavzu: "Baxor fasli qo'shiqlari" Fa-major, re- minor tonalliklari asosiy (turg'un) tovushlarini kuylash. Ularni turli mashq va qo'shiqlarni nota yozuviga qarab, avvaliga solfedjiolash uslubida, so'ngra so'zlari bilan kuylash malakalari ustida ish olib borish.

Ko'rinadiki, boshlang'ich (1-4-sinflar)da o'quvchilarda xosil qilinadigan nazariy bilimlar, ularni nazariy bilimlarni mukammal o'rganishni emas, eng oddiy atamalar, musiqa ma'lumotlarini ifoda vositalari haqidagi boshlang'ich ularda notaga qarab kuylash, ya'ni nota o'qish malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Albatta, har bir o'qituvchi har bir darsda individual, ijodiy va sinf imkoniyatlarini xisobga olgan holda yondashadi. Shunday ekan ta'kidlab o'tilgan talab va mezonlar, qat'iy talab sifatida qabul qilinmasligi lozim. O'quvchilar musiqani ongli idrok etish, unga tavsif berishga o'rgatish vazifalari ularda musiqa madaniyati va musiqiy-nazariy savodxonligini tarkib topgan xolda xar bir darsni qiziqarli va mazmuni tashkil etilishini taqozo qiladi.

## **II-BOB: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy savodxonligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari.**

### **2.1. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlari.**

Umumiy o'rta ta'limning barcha fanlarida bo'lgani kabi musiqa madaniyati fanining ham o'ziga xos didaktik tamoyillari, pedagogik va metodik yondashuvlari mavjud. Musiqa tinglash, uni idrok etish, musiqa nazariyasi (nota savodxonligi)ga oid eng oddiy tushunchlarni egallash, notaga qarab, uni o'qish orqali (varaqdan o'qish) kuylashga erishish birinchi navbatda darsning xar bir faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, rejalashtirish va darsni xar bir bosqichi (faoliyatlaridan ) unumli va to'g'ri foydalanishga bog'liqdir. Qo'shiq kuylash va musiqa tinglash jarayonida o'quvchilarning musiqiy badiiy emosional xis etishlari, ya'ni idrok etishlari uchun zarur bo'lgan musiqaning badiiy ifoda vositalari haqida kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari musiqiy ta'lim mazmunida tayanch omil xisoblanadi.

Darsda o'quvchilar faoliyatining barcha turlariga musiqani idrok qilish asos bo'ladi. Musiqani tushunish atrofdagi xayotni to'la-to'kis idrok qilish uchun zarurdir, chunki san'ati asari va hayotdagi estetik voqyelikning mohiyatini anglash maktab o'quvchisi shaxsining musiqiy madaniyatini shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi. Bu xaqda kompozitor va pedagog olim D.B.Kabalevskiy shunday yozadi "Musiqa darslari o'z oldiga quyidagi vaziflarni qo'yadi: o'quvchilarni katta musiqa san'ati dunyosiga olib kirish; ularni musiqani, uning juda boy shakl va janrlari bilan birgalikda sevishga, tushunishga o'rgatishdan, boshqacha qilib aytganda, o'quvchilardan musiqa madaniyatini ular ma'naviy madaniyatini qismi sifatida tadbialashdan iboratdir."

Shunday ekan musiqa o'qitish metodikasi xususiy vazifalaridan, masalan, qo'shiq o'rganish va shu faoliyat negizida aniq vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan nazariy qoidalarni puxta o'zlashtirish maqsadini ham qamrab oladi.

O'quvchilar uchun musiqa go'yoki bir sexrli olam. Ularni ana shu sexrli olamga olib kirish uchun avvalo musiqaga qiziqishini kuchaytirish, musiqiy

eshitish(sluh) qobiliyatini rivojlantirish musiqiy tafakkur, musiqiy didlarini va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirish kerak. Musiqa darslari mazmunida faqatgina musiqiy bilim va malakalarni o'zlashtirish emas, o'quvchilar ongiga voqyelikka munosabatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarga musiqaning nazariy qoidalarini o'rgatib borish bilan birga faoliyatlar mazmunida o'z aksini topadi va o'quvchilarni xar bir faoliyatni ongli suratda, savodxonligi asosida bajarishlariga zamin yaratadi. Musiqa darslaridagi "musiqa savodi" faoliyatining asosiy maqsadi o'quvchilarning musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqaga mos xarakterlar bajarish va bolalar musiqa asbobida chalish kabi faoliyatlarida olgan barcha bilim, malaka, ko'nikmalarini nazariy jihatdan umumlashtiradi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, musiqa sadosi faoliyati darsda ta'limiy vazifani bajaradi. Qolgan faoliyatlar esa ko'proq tarbiyaviy maqsadlarni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich sinf musiqa darslarida musiqa savodi faoliyatining asosiy negizi va pedagogik maqsadi yangi dasturlarda berilgan chorak va yil mavzulari bo'yicha kuylash va tinglashga doir kuy va qo'shiqlarni savodli taxlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda musiqa savodi ya'ni nazariyasiga oid bilimlar quyidagi bosqichlar bo'yicha o'rgatiladi:

1. Bolalar diqqatini musiqaning asosiy ifoda vositalari kuy registrlar, temp, ritm, dinamik belgilar, nota belgilari, cho'zimlari, nota chizig'i, klitlar va boshqalarga qaratiladi.
2. Ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga mansub bo'lgan bilimlar, chapak va cholg'u asboblari chalish qoidalariga amal qilishga o'rgatish.
3. Musiqa asarini ijodkorlari bo'lmish "kompozitor yoki bastakor", "ijrochi", "tinglovchi" kabilarning o'rnini, ahamiyatini o'rganiladigan asar g'oyaviy badiiy mazmuni bilan bog'liq ravishda kerakli ma'lumotlarni musiqa savodi amaliyoti orqali o'rganib borish.

Musiqqa darslarida belgilangan ushbu pedagogik maqsadlar barcha musiqiy faoliyatlar yaxlidligida olib borilganda musiqiy malakalarni shakllantirish jarayoni samarali kechadi.

Masalan, birgina qo'shiq kuylash faoliyatini olib qaraylik. Biror qo'shiq o'rgatishdan avval o'qituvchi shu qo'shiqning ijodkorlari haqida gapirib beradi. Bu yerda musiqqa savodining bir bo'limi musiqqa tarixi ishtirok etadi. O'rganilayotgan qo'shiq notasi va so'zi doskaga yoziladi. Keyin magnitafon yozuvida yoki o'qituvchi ijrosida qo'shiq tinglanadi. O'z-o'zidan musiqqa tinglash faoliyatiga duch kelamiz. Qo'shiq tinglangandan so'ng o'qituvchi yordamida o'quvchilarning kuyning xarakteri, ifodaviy vositalari qaysi janrga tegishli ekanligini aniqlaydilar. Bu yerda esa musiqqa asarlari taxliliga oid bilimlarga murojat etamiz.

Xalq qo'shiqlariga va kuylariga asoslangan, qayta ishlangan va xor ijrosiga moslashtirilgan qo'shiqlarni o'rganganda o'qituvchi xalq musiqqa ijodiyoti, uning muhim rivojlanish bosqichlariga to'xtalib o'tadi. So'ngra asosiy maqsad – qo'shiqni o'rganish jarayoni boshlanadi. O'rganilayotgan qo'shiq yaxshi idrok qilinishi uchun qo'shiqning ma'no va mazmuniga mos ritmik xarakatlar bajarilishi, notani o'qiy olish malakalari maqsadga muvofiq keladi. Masalan, nota xarakat yo'nalishiga muvofiq kuylash, dinamik ishoralarni anglash va hokozo.

Bu jarayonni amalga oshirishda tafakkur, diqqat, xotira, musiqiy eshituv va badiiy-emosional ko'tarinki ruh muhim rol o'ynaydi. Pedagogika va psixologiya fanlari shuni ta'kidlaydiki, bolalarda musiqiy, badiiy va nazariy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa butun ta'lim jarayonini bularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqqa darslarida hotirani kuchaytirish va rivojlantirishning asosiy uslublaridan biri darslarni soddadan-murakkabga, quyidan-yuqoriga qarab borish prinsiplariga asoslangan holda uyushtirishdir.

Musiqqa darslarida musiqiy va nazariy bilimlarni o'quvchilarga singdirish mashg'ulotlarini pedagogik, metodik jihatdan to'g'ri uyushtirish bilan bir qatorda maktabdagi mavjud shart-sharoitlarga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Buning uchun avvalom bor maktablarda musiqqa darslari uchun alohida xona bo'lishi va kerakli

musiqa aboblari, ko'rgazmali, texnik vositalar bilan jixozlangan bo'lmog'i lozim. Sinf xonalari keng, yorug', xarakatlanish uchun qulay bo'lishi, stol va stullar, nota yozuvi uchun mo'ljallangan doska, musiqa tinglash uchun magnitofon yoki musiqiy markaz, qo'shiqlar to'plamlari, darsliklar bilan ta'minlangan bo'lishi darkor.

Musiqa xonasidagi jihozlar talabga muvofiq joylashtirilishi, sinf devorlariga taniqli o'zbek va jahon musiqa madaniyatining yirik namoyondalari portretlari qo'yilishi ham muhim jixatlardan sanaladi.

Musiqa ta'limi bir qator o'ziga xosliklarga ega bo'lganligi bosh o'qituvchidan juda katta pedagogik mahorat talab qiladi. Tajribali o'qituvchi darslarni shunday tashkil etishi lozimki, unda qo'shiq kuylashga xam, musiqa tinglashga xam, musiqa savodiga xam, o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga ham imkoniyati yetishi, umuman ko'zlagan maqsadga erishsin.

Atoqli rus musiqa pedagogi va nazariyotchisi B.V.Asafyev umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini o'qitishning asosiy tamoyili sifatida quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Musiqiy tarbiyada kontrastlik.
2. Badiiylik.
3. Improvizasiya.

B.Asafyev o'rta ta'lim maktablari o'qituvchisi bilimi kerak bo'lgan sifatlarni ta'kidlab, shunday deydi: "umumiy o'rta ta'lim musiqa o'qituvchisi musiqa sohasining faqatgina bir yo'nalishida "mutaxassis" (ya'ni yo cholg'uchi, yo qo'shiqchi va xakozo) bo'lmasligi kerak." U ham nazariyotchi ham amaliyotchi, musiqa adabiyoti, etika, estetika, pedagogika, yosh fiziologiyasi bo'yicha yaxshi bilim va malakaga ega bo'lgan holda o'quvchining diqqatini doimo kerakli tomonga jalb etishi kerak. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslari adabiyot, tasviriy san'at darslari qatori badiiy predmet sanaladi. Bu fanlarning vazifalari mushtarak keladi.

Shu o'rinda musiqiy bilimlarni o'rgatishda yana bir muhim omilga aloxida to'xtalishga joiz deb bilamiz. Bu musiqiy tarbiyaning psixologik omillarga bog'liqlik xususiyatidir.

Musiqqa inson xissiyotlar xolatining barcha tovlanishlarini aks ettirishiga qodir. U eng murakkab tuyg'ular nozik kechinmalar va kayfiyat holatini ifoda eta oldi. U ruhiy xolat xususiyatlarini ifodalash bilan insonni qurshab olgan atrof-muhit va u mansub bo'lgan millatga xos xayoliy ko'rinish va milliy ruxni o'zida mujassamlashtirish qudratiga ega. Buyuk bastakorlar ijodida u yoki bu xalqqa xos bo'lgan ruhiy tizim xususiyatlari, tuyg'ular voqyelikni tasvirlash imkoniyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Buyuk olim I.P.Pavlov inson kechirayotgan turli xis- tuyg'ular bosh miya yarim sharlari po'stloq qismining faoliyati ekanligini dalillaydi. Atrof muxitning inson organizmiga doimiy ta'siri va organizmning bu ta'sirlarga javob reaksiyasi natijasida ma'lum munosabatlar tizimi vujudga keladi. Olim buni dinamik steriotin- deb ataydi. Bu steriotin kishidagi xissiyotlarning fiziologik va psixologik tabiatini chuqurroq o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, musiqiy bilim va malakalarini to'la idrok etish va o'zlashtirish uchun inson psixologiyasining faoliyati xilma-xil psixik omillarga ega bo'ladi. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishdan maqsad o'quvchilarning musiqiy asarning lad, o'lchov, temp, dinamika, registrini aytib berishlari emas, balki musiqaning yuqoridagi ifoda vositalari orqali ularda shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarni: ijodiy qobiliyat, diqqat, musiqiy xotira, tasavvur, faollikni, tashabbuskorlikni shakllantirishdir.

O'quvchilar xissiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning muayyan sharoit bilan bog'liqligidir. Bolalarda sodir bo'ladigan xissiy kechinmalar muayyan bir sharoitda vujudga keladi. Shunga ko'ra ularni qiziqtiradigan diqqatlarini jalb qiladigan sharoitni yaratish ularda estetik xissiyotning, musiqiy madaniyatini o'stirishning eng muhim shartidir. O'quvchilar muayyan bir musiqiy tinglar ekanlar musiqaning rang-barang ovozlari, ifoda vositalarini, xarakter va kayfiyatini farqlashni eshitilgan asarni qaysi janrga mansubligini mumtoz, estrada

yoki boshqa musiqalarni bir – biridan farqlay olishni xissiy- emosional jihatdan idrok eta boradilar.

Musiqiy did, musiqiy dunyoqarashning shakllanishida darsdan tashqari va maktabdan tashqari ishlarning qay darajada yo'lga qo'yilganligi o'quvchilarning yashash sharoitlari, oiladagi muhit va oilaning musiqaga nisbatan munosabatlar g'oyatda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda musiqa ta'limi va tarbiyasi oldiga qo'yiladigan zamonaviy talablarini mukammal ado etish, o'quvchilarning o'quv dasturi materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari juda ko'p va xilma-xil omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar tizimida maktabda musiqa darslarini olib borish uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar va musiqa ta'limi mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi turli xil manbalarni mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitni yaratishda ham birinchi galda o'qituvchining ijodiy izlanuvchanligi, intiluvchanligi, tashabbuskorligi, faolligi va o'z kasbiga va bolalarga mexr muhabbati yetakchi o'rin tutadi.

## **2.2. Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini takomillashtirish uslublari.**

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarining musiqa darslarida musiqa savodi faoliyati darsning yetakchi tarkibiy qismlaridan bo'lsada musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni berish, darsning alohida bir qismi doirasida cheklanib qolmasligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, dars faoliyatlari darsning uzviy, mantiqiy, davomiylikdagi tugal jarayonlari bo'lib, qo'shiq kuylash, musiqa tinglash faoliyatlari ohir oqibat o'zining maqsad va vazifalariga ko'ra nazariy savodxonlik bilan mantiqiy bog'lanadi. Chunki bu faoliyatlarda olib boriladigan ta'limiy vazifalarni taxlil qilinganda ham aynan shunday xulosaga kelishimiz aniq. Masalan, qo'shiq kuylash faoliyatida qo'shiqni tonalligi, o'lchovi, tempi, janri, jo'rli, jo'rsizligi, unison yoki ko'p ovozliligi, dirijyorlik ishoralari, dinamik belgilarni, tushuncha holda ijro etish asarni badiiy tasirchan va yoqimli bo'lishini ta'minlaydi.

Musiqiy asarni tinglash orqali uni to'g'ri idrok etish, lad tonalligini farqlash, xarakteri, mazmuni, janri, shakli, ifoda vositalarini, badiiy va nazariy taxlil qilish ham o'quvchilarni musiqiy-nazariy, ya'ni nota savodxonligini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham musiqa savodi xususan nota o'qish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bilimlarni o'quvchilarga o'rgatib borish va shu asosda ularni musiqa nazariyasi va amaliyotidan savodli qilib tarbiyalash vazifalarini xal etishga yo'naltirish yaxshi samara beradi.

Bu faoliyat turini birinchi sinfdan, dastlabki darslardan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Musiqa savodi, ya'ni nazariyatga oid bilim va tushunchalar juda murakkab kechadi. Xarf o'rganayotgan bolalarga nota yozuvi va turli ifodaviy belgilar qoidalarini o'rgatish va o'quvchilar tomonidan ularni o'zlashtirilishi juda ham jiddiy psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida ish tutishni talab qiladi. Birinchi sinfning 1-2 –choraklari dastlabki, tayyorlov bosqichi xisoblanib, ayni bu davrda o'quvchilarda badiiy faoliyat asarining barcha turlarini shakllantirish bilan bog'liq o'quv – dars mashg'ulotlari boshlanadi. Musiqa o'qituvchisi o'zining hamda o'quvchilarning dars davomida qiladigan ta'limiy va tarbiyaviy xatti-xarakatlarini har xil qiziqarli usullarini ishlab chiqishi uchun musiqa o'qituvchisi quyidagilarni bilmog'i lozim:

1. Bolshang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy faoliyatlarini uyushtirish shakllarini;
2. O'quv dasturi mazmunini darsliklardan o'rin olgan o'quv materiallarining g'oyaviy-badiiy mazmuni, nazariy asoslarini didaktik usul va prinsiplarini;
3. O'quvchilarning yosh, individual, psixologik va fiziologik xususiyatlarini;
4. Musiqa darslarida o'rganiladigan musiqiy asarlarning va nazariy bilim va tushuchalarning badiiy xususiyatlari hamda eng muhim tarbiyaviy ahamiyatini;
5. Maktabda va maktabdan tashqari olib boriladigan ta'limiy va tarbiyaviy mashg'ulotlarning samarali ish shakl va usullarni izlab topish va ularni o'ziga xos qiziqarli va mazmunli tashkil etishni;
6. **Darsni konstruksiyalash:**
  - reja-konspekt tuzish;
  - kerakli musiqiy asarlarni to'plash ya'ni repertuar yig'ish;

- kerakli ko'rgazmali qurollar va texnik vositalarni xozirlash;
  - darsning tashkiliy tuzilmasi shakl va usullarini izlash;
7. Pedagogik masalalarni formulalash va uning yechimini aniqlash;
  8. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini ochib beruvchi mashg'ulotlarini qiziqarli shakllariga e'tiborini kuchaytirish (o'quvchilarni turli yig'in tanlovlarga, ijodiy va xisobot konsertlariga tayyorlash).
  9. O'quvchilar egallab borayotgan bilimlarni keyingi o'zlashtiriladigan bilim va malaklariga tayyorlab borish.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni diffirensiyal guruh bo'lib, ish tutishi yaxshi natija beradi. Bunda musiqiy qobiliyati, diqqati, xotirasi, serob o'quvchilar oldingi qarotlarga, musiqani yaxshi eshitadigan o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan bolalarga orqa qatorlarga joylashtirishi lozim. Ayrim xollarda "bo'sh" o'quvchilarni "kuchli", "qobiliyatli" bolalar yoniga ham o'tqazish ham samarali usullardan xisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda musiqa nazariyasiga oid bilim tushunchalar o'quvchilarni ma'lum kuy yoki qo'shiqni tinglash va kuylash, raqs va ritmik xarakatlarni bajarish jarayoni bilan uzviy bog'liq ravishda tushuntirib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarga tushintiriladigan nazariy mavzular xech qachon bir darsni qamrab olmasligi kerak. Chunki, o'quvchilar diqqati xotirasi ularni qabul qilishga xali tayyor emas. Olaylik birinchi sinfda dastlab bolalarning tovushlarini yo'g'on (past), ingichka (baland), uzun, qisqa, tembr (tus) va kuchni farqlashga o'rgatishga asosiy e'tibor qaratiladi. O'yin shaklida beriladigan bir qator topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar musiqa tovushlarini tinglash, qiyoslash, farqlash, ularni yozilishi, mashq qilish, ularni kuylash, xarakatli raqs elementlarini bajarish, qarsak (chapak) chalish, shiqildoq, qoshiq, doiracha singari musiqa asboblarni chalishadi.

Baland va past tovushlar xaqidagi tushunchalar orqali tovushlarning bir-biridan farqi, turli xayvonlar yoki musiqa asboblari misolida tushuntiriladi.

Do-major (o'n qatorni) tushuntirishda tovushlar ketma-ketligi zinapoyachalar ifodasidagi tasvir orqali berilganda bolalar ularni osongina farqlaydilar va yodida olib qoladilar.

Birinchi sinfda o'quvchilarning musiqa nazariyasiga oid bilimlari nisbiy bo'lib, ikkinchi sinflarda aniq (absolyut) tushunchalarga aylanadi. Shuningdek, birinchi olingan bilimlar asosan notaga bo'lgan davr sifatida nomoyon bo'ladi.

**Boshlang'ich sinflarda nota savodxonligini o'rgatishga qo'yiladigan asosiy talab-** dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda – qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishlariga erishishdir.

Darsda xar bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglashayotgan asarlarning kim tomonidan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, va xokozolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari ularni ichdan o'qish malakalariga ega bo'lishlari lozim. Mana shu jarayonda musiqiy- nazariy bilimlar muhim o'rinlar tutadi.

Musiqiy-nazariy bilimlar to'g'ri yo'lga qo'yilmagan sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham o'qituvchi imkoni boricha darslarni ko'rgazmali qurollarda, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan xolda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchi sinfda musiqa savodi boshlang'ich bilimlarini beradi. Nazariy ma'lumotlarga kirishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarni musiqaga munosabati extiyotkorlik bilan aniqlab, ular bilan musiqiy muloqotga kirishadi. “Siz qanday qo'shiqlarni bilasiz?”, “Raqsga tushushni yoqtirasizmi?”, “Qaysi cholg'u asbobida chalishni istaysiz?” degan savollar bilan ularni suhbatga tortadi. Shundan so'ng “Endi men sizlarga musiqa aslida nima ekanligi va qanday paydo bo'lganligi haqida gapirib beraman”... deb bu haqda qisqacha tushunchalarni gapirib beradi. Shundan so'ng musiqaning ifoda vositalari bilan tanishtirishga kirishiladi. Bu jarayonda o'quvchilarga nota yozuvi, notalar cho'zimi, choylashuvi kalit belgilari bilan qisman tanishadilar. Musiqa boshqa san'at turlari kabi insonlarning o'zaro muloqot qilishga yordam beruvchi vositadir. Shu bois musiqa tilini yaxshi tushunish uchun uning eng muhim ifoda vositalarini bilish zarur.

O'quvchilarning musiqiy-nazariy biluv jarayonida musiqa tinglash ham muxim o'rin tutadi. Musiqa tinglamasdan musiqa madaniyatini tarkib toptirish mumkin emas. Musiqa tinglash jarayonida o'quvchilar turli xarakterdagi quvnoq, sho'x, raqsobop, marsh kabi musiqalarni tinglaydilar. O'zbek, qardosh xalqlar va jaxon musiqasi durdonalari bilan tanishadilar.

Musiqani sevish va tushunish uchun avvalom bor uni tinglash so'ngra uni nota yozuvini taxlil etish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darslarida o'zlashtiriladigan musiqiy-nazariy boshlang'ich tushunchalarni quyidagicha belgilash mumkin:

Musiqaning o'ziga xos xususiyatlari, ayrim qonuniyatlari, ifoda vositalari, bularning barchasi oxir oqibat nota savodxonligi bilan bog'lanadi. Demak musiqa savodi musiqa san'ati haqidagi boshlang'ich tushunchalar tizimidan iborat ekan.

Musiqa savodining asosiy kaliti va pedagogik manbai chorak mavzulari va ularni yoritish uchun tanlangan kuylash va tinglashga doir asarlardir. Maqsad kuylash, tinglash davomida o'quvchilarda asarlarni yozilishiga oid nota o'qish yoki ya'ni nota savodxonligini shakllantirishdan iboratdir. Bolalar har bir darsda asarlarni nota yozuviga qarab ijro etish, solfedjio qilish, temp, ritm, tembr, dinamika belgilarini ongli ravishda idrok etib, yangi tushunchalarga ega bo'lib, borishlari lozim. Mazkur tushuncha bilimlarning boyib borishi asta sekin o'quvchida nota savodxonligi va madaniyatini shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Birinchi sinfda musiqa savodi haqida beriladigan bilimlarni quyidagicha belgilash mumkin: 1). Bolalarning diqqati musiqaning ifoda vositalari – kuy, registr, temp, ritm, dinamikalariga jalb etiladi. Dastlabki mashg'ulotlardan bu terminlarning qoidasini tariflash bilan tushuntirish qiyin.

Maslalan, kuylangan qo'shiq musiqasidagi xarakter (quvnoqlik, tantanavorlik, o'ynoqlik) borligi hamda kuy xarakati turg'un bo'lmay balki, yuqori va pastga qarab yo'nalib turishi haqida aytiladi. Shundan so'ng kuy tovushlardan iborat bo'lib, ular uzun qisqa bo'lishi aniqlanadi. Shu tariqa uzun va qisqa musiqiy tovushlarning yuqori va pastga qarab yo'nalishi natijasida xosil bo'lgan oxang - kuy haqida tushuncha xosil qilinadi. Bolalarning kuyni plakat yoki doskadagi

grafik xarakatiga xamda uzun va qisqa tovushlarni nota kartochkalariga qarab kuylashi natijasida ularda notaga qarab kuylash malaka va ko'nikmalari shakllanib boradi.

Bolalarning nota o'qishini rivojlantirishning dastlabki bosqichida xarakatli ko'rgazmalilik uslubi yaxshi natija beradi. Bu kuyning yuqoriga va pastga yo'nalgan xarakatini qo'l xarakatlari ifodasi bilan tasvirlab kuylashdan iboratdir.

Plakat yoki doskada kuy xarakatlari quyidagicha tasvirlanadi:

-----  
-----  
-----

Mazkur usulga nisbatan bolalarda ko'nikma xosil bo'lgach, kuyning grafik chiziqlari ustiga o'ziga teng notalarni ularning yangi ko'rinishi sifatida yozish mumkin.

-----

Mazkur tovush cho'zimi mutanosibligini bolalar yaxshi tushungandan so'ngina notali kartochkalarga qarab kuylash va chalish yaxshi natija beradi. Notalar oq qartochkalarda quyidagicha yoziladi:

Ularni qo'shish va joy almashtirilishi bilan turli ritmik sxemalar xosil etiladi.

O'quvchilardan nota yozilgan plakatga qarab nota nomini topishlari so'raladi:

-----  
-----  
-----  
-----

yoki: biror nota yozuvda masalan fa notasini topish so'raladi.

-----  
-----  
-----

O'quvchilarga savol tashlanadi: Fa notasini toping?

2-3-sinflarda bunday usul o'quvchilarda uncha qiyinchilik tug'dirmaydi:

1). Butun nota ichida nechta yarim nota bor?

A. 4 ta yarim nota bor.

B. 2 ta yarim nota bor

V. 3 ta yarim nota bor

G. 5 ta yarim nota bor

Eng baland tovushni toping.

---

---

---

---

Tovush qatorida qaysi nota tushurib qolgan?

---

---

---

---

Qo'shiq kuylash jarayonida kuyning xarakatlanishi o'qituvchi ko'rgazmali qurolida berilgan turli grafik tasvirlarda yoki qo'l xarakatlarida va asta sekinlik bilan nota yozuvlari orqali ko'rsatib borishi, bolalarning kuyni yaxshi tasavvur qilishi, xotirasida uzoq vaqt saqlab qolishiga imkon beradi. Bunda qo'shiqning notasi yozilgan plakatga qarab dastlab bir takt ichidagi notalarni nomi bilan o'qish, o'quvchilar nota nomini, nota chizig'idagi o'rniga qarab, nomini aytib kuylashga erishganlaridan so'ng uni qo'shiq so'zlari bilan kuylashlari bunda o'qituvchining ko'rgazmali (ibrat ko'rsatishi) yaxshi natija beradi. Bunday usullarni qo'llagandan keyin bolalarga mustaqil topshiriqlar berish va topshiriqlarni yaxshi bajargan o'quvchilarni rag'batlantirib borish pedagogik jarayonni samarali kechishini ta'minlaydi.

Qo'shiq ma'lum darajada o'rganilgandan so'ng endi uni xarakteri, tempi, dinamik tuslariga rioya etib, kuylashga o'tiladi. Bunda nota yozuvida mavjud dinamik tuslar (f, ff, p, pp, mf, mp, repriza, volta, krishendo, diminuendo va

xokozo)larning vazifasi, ularning yozilishi, qo'shiq ijrosi amaliyotida qanday qo'llanilishi o'qituvchi ko'rsatmasi, ijro etib ko'rsatishi orqali o'zlashtirilib boriladi. Bu o'rinda bolalarni faolligini oshirish uchun ularga test savollar berish, oldin o'rganilganlarini esdan chiqib ketmasligi uchun takrorlab turish muxim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shiq kuylash jarayonida esa qo'shiqni nota yozuvi bilan tanishish:

- Qo'shiqning matni bilan tanishish;
- Qo'shiqni bo'laklarga bo'lib o'rganishga kirishish;
- Qo'shiqni bir necha marotaba qaytarish orqali mustaxkamlash;
- Asarning musiqiy badiiy obrazini tinglovchilarga yetkazib kuylash (musiqiy xarakterlar, emosional tuyg'ular orqali).

Boshlang'ich sinflarda kuylash malakalarini shakllantirishni quyidagi uch bosqichga bo'lish mumkin.

1. Oddiy, elementar kuylashni o'rganishga erishish;
2. Mashqlar orqali vokal-xor kuylash malakalarini o'zlashtirish, notaga qarab kuylash;
3. Hosil qilingan kuylash malakalaridan samarali foydalanish.

Musiqqa madaniyati darslarini samaradorligini oshirish uchun mazkur fan xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan didaktik prinsiplarga asoslanishini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Darslarga qo'yiladigan didaktik talablar tizimida qo'llaniladigan metodikaning aniq va tushunarli bo'lishi avvalgi o'tilgan darslar bilan o'tilayotgan darsning uzviy bog'langan bo'lishi, o'tiladigan mavzuga mos material tanlash, dars o'tishda samarali usul va metodlardan foydalanish, darsni tashkil eta bilish, jamoa, guruh va individual ishlash usullarini o'zlashtirish dars jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatini xisobga olish, musiqqa ma'daniyati darslarini boshqarish, boshqa fanlar aloqadorligi xususiyatlaridan dars mazmunini boyitishda foydalanish.

Ko'rinadiki o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarini o'zlashtirish va shu jarayonda nota o'qish, notaga qarab kuylash malakalarini egallashlari avvalo

o'qituvchining kasbiy maxoratiga, darslarni tashkil, qilish, boshqarish, rejalashtirish, samarali ish uslublaridan unumli foydalanish, o'quvchilarni umummusiqiy, musiqiy-nazariy pirovardida nota o'qish va notaga qarab kuylash malakalarini rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bunday pedagogik talablar singdirilgan o'quv mashg'ulotlari ta'mirida o'quvchilarda haqiqiy musiqiy madaniyatni va vokal-xor kuylash malakalarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Xozirgi kundagi musiqa ta'limi va tarbiyasi oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarning asl mazmuni va mohiyati xam ana shuni taqozo etadi.

Shu o'rinda o'quvchilarda musiqa savodi bo'yicha bilimlarni yetkazish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi bir qator ko'rgazmali chizma va shakllarni keltirib o'tamiz, zero ko'rgazmalilik va amaliy topshiriqlarni bajarish bilan amalga oshiriladigan mashg'ulotlar esda mustahkam saqlanib qolishi bilan ahamiyat kasb etishi amaliyotda o'z isbotini topgandir.

### **1-ko'rgazma**

Musiqiy tovushlar nomlari

|  |  |  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|--|--|
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |

### **2-ko'rgazma**

Nota yo'li va sol kaliti

-----  
-----  
-----  
-----  
-----

### **3-ko'rgazma**

Nota yo'lida asosiy tovushlarning joylashishi

|  |
|--|
|  |
|  |
|  |
|  |
|  |

#### 4-ko'rgazma

Nota cho'zidlari va ularning sanalishi

Butun nota - = 1i, 2i, 3i, 4i ;

Yarim nota - = 1i, 2i;

Chorak nota - = 1i;

Nimchorak nota - = 1 yoki i

Shn oltalik nota - = 2tasi 1 yoki i

#### 5-ko'rgazma

Pauzalar

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |

Butun pauza

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |

Yarimtalik pauza

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |

Choraktalik pauza

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |

Nimchorak pauza

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |

O'n oltalik pauza


## 6-ko'rgazma

Do-major gammasi (o'n qator)

|  |  |
|--|--|
|  |  |
|  |  |
|  |  |
|  |  |

## 7-ko'rgazma

Ton va yarim ton



## 8-ko'rgazma

Alteratsiya belgilari.

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

diyoz

---

---

---

---

---

bemol

---

---

---

---

---

Bekar

dubldiyoz

## 9- ko'rgazma

Dinamik belgilar.

f-(forte) kuchli

mf-(messeforte) o'rtacha kuchli, kuchliroq

p-(piano) –sekin (kuchsiz)

mp- sekidan qattiqroq

ff- fortissimo juda kuchli

pp- juda ham kuchsiz (sekin)

kreshendo kuchayib borish

diminuendo pasayib borish

> = urg'u, ta'kidlab ijro etish.

### 10-ko'rgazma

Repriza (Qaytarish belgisi)

---

---

---

---

---

### 11-ko'rgazma

Major va minor uchtovushligi, (major va minor asosiy pog'onalarida) major va lya minor.

---

---

---

---

---

S-dur (do- major)

a-moll (lya -minor)

Bundan tashqari o'qituvchi musiqa darsi rejasini tuzganda maqsad, vazifani, mavzusini, turini va o'qitish shakllarini, musiqiy faolliklarining va ularni o'quvchilarga singdirish uchun foydali metodik texnologiyalar va usullarni aniqlab, so'ng darsning ssenariysini yozib chiqish kerak bo'ladi. Xar bir darsda qo'llaniladigan usullar, texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar darsning har bir faoliyatini xususiyatidan kelib chiqib asosiy maqsadga yo'naltirilmog'i va darsni sifat va samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning musiqiy-nazariy savodxonligi ularni eng avvalo musiqiy idrok etish malakalarini rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bu o'rinda 1-4-sinflarda o'quvchilarning musiqiy idrok ko'nikmalarini asosini belgilovchi mezonlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

**1-sinfda** – musiqa qiziqish va muhabbatni tarkib toptirish;

- Musiqiy eshituv (sluxni) musiqiy emosionallikni shakllantirish;
- Musiqa xarakterini anglash, farqlash;

- Cholg'u sozlarini farqlash, tovush tembridan aniqlash;
- Kuylash (vokal)ning eng oddiy elementar qoidalarini egallash;
- Musiqaga mos xarakatlarni mustaqil bajarilishi;
- Toza intonasiyaga, o'qituvchiga, musiqaga ergashib, ritmni his etib kuylay olish ko'nikmalarini egallash;

**2-sinfda:**-musiqa tinglab, uni to'g'ri idrok etish ko'nikmalarini rivojlanganligi;

- Musiqiy janrlar haqida tushunchaga ega bo'lish;
- Tembr, o'lchov, temp, registr, lad haqida tasavvurga ega bo'lish;
- O'z ovozi boshqara olish, dirijyorlik ishoralariga qarab kuylay olish;
- Do-major gammasini notaga qarab va yoddan kuylay olish, tonikani his etish.

**3-sinfda:**- musiqa asari haqida (kuylangan, tinglangan) ma'lum ta'surotini ifodalay olish;

- Tovushlar baland-pastligi, tembri, jo'r ovozlilik, soz ansambliligini his qilish;
- Dinamik tuslarni anglash, jamoa bo'lib kuylash malakalarini egallash, ikki ovoqli kichik mashqlarni, kuylay olish;
- Alteratsiya belgilari, major, minor ladlarini ton va yarim tonlarni eshitib farqlay olish.

**4-sinfda:** musiqani metodik eshitish, dinamik, garmonik eshitish qobiliyatlarini shakllantirish;

- Kuylashda ifodalilikka erishish;
- Ikki ovozda kuylash malakalarini egallash;
- Notaga qarab mashq kuylash;
- Intervallar, uchtovushlik, pauzalar, qaytarish belgilari, akapella haqida tushunchaga ega bo'lish.

Ushbu bob bo'yicha quyidagicha xulosaviy fikrlarimizni aytib o'tishimizni joiz deb bilamiz.

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarni yaxlit bir badiiy –pedagogik asar deb xisoblash mumkin. Chunki uni o'qituvchi o'z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi.

Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy –pedagogik g'oyasi maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o'quvchilarda musiqaga qiziqishni o'stirishi, musiqiy-nazariy bilimlarni puxta egallashga intilish va erishish ko'nikmalarini singdirishga xizmat qilishi lozim.

### **III-BOB: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish uslublarining amaliyotga tadbiri.**

#### **3.1. O'quvchilarning musiqiy-nazariy savodxonligini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni.**

Musiqiy ta'lim-o'quv jarayonining o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatidagi xamkorlik ta'limning eng samarali jihatlari xisoblanadi. Darsda o'quvchilar jamoa bo'lib kuylaydilar, musiqa tinglaydilar, musiqa mos xarakterlar bajaradilar. Bunda ular turli hil xissiy kechinmalarni boshdan kechiradilar. Darsni qiziqarli, turli usul, turli vositalar qo'llanilgan holda o'tilishi o'quvchilar tomondan bilim, ko'nikma va malaklarni nisbat qulay va qiyinchiliksiz egallash imkoniyatini oshiradi. Musiqa ta'lim tizimining taxlillari va shu vaqtga qadar to'plangan tajribalarni umumlashtirish musiqa darslarining yangi-yangi turlarini, qo'llaniladigan uslublarini tadbir etish vazifasini qo'yadi.

Zamonamiz va ta'lim oldiga qo'yilayotgan talablar musiqa darslarini ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zaruriyatini vujudga keltirmoqdami, bu o'rinda biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik va fiziologik xususiyatlariga mos quyidagi dars turlari xaqida to'xtalib o'tishni lozim deb topdik. Chunki, boshlang'ich sinflarda darslarni imkon qadar o'yin tarzida olib borish o'quvchilarning faolligini oshirishga va berilgan vazifalarni qiziqish bilan amalga oshirishlariga olib keladi. Masalan, musiqiy cholg'ular mavzusi o'tilganda, o'quvchilarga turli hildagi musiqa cholg'ulari surati solingan kartochkalar beriladi. O'qituvchi magnitofon yordamida biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyni eshittiradi. O'quvchilar musiqiy asar qanday cholg'uda ijro etilganligini qo'llaridagi kartochkalar orqali ko'rsatadilar. Faol o'quvchilar baholanadi va rag'batlantiriladi. Shu xildagi dars turlariga qisqacha ta'rif beramiz:

**Konsert darslari-** o'quvchilardagi bor musiqiy- nazariy bilimlarni amalda qo'llash, o'zlari va boshqalarning bilimlariga baho berishi, jamoa bo'lib kuylash, yakkanavozlik, jo'rnavozlik malaklarini shakllantirish, raqs elementlarini bajarish va xokozolarga keng imkoniyatlar yaratadi. Bunday darslarni asosan, bir chorak tugab ikkinchisi boshlanganida uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu dars

turida o'quvchilar chorak davomida o'zlari o'rgangan kuy qo'shiqlari asosida "konsert" berishadi. Bunday darslar o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashga va baxolashga yordam beradi. Dars avvaldan rejalashtiriladi. O'quvchilarni xar biriga vazifalar oldindan beriladi. Bu darsda o'quvchilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlari, ijrochilik maxoratlarini namoyish qiladilar. O'quvchilarda o'zini saxnada tutishi, jamoa bo'lib kuylash, mustaqillik, tashabbuskorlik malakalari shakllanadi. Konsert darslarini bir kompozitor, ijodkor, yozuvchilar tavallud kuni yoki ijodiga bag'ishlab ham o'tkazish mumkin. Bu shu ijodkor yaratgan asarlarga asosiy e'tibor qaratiladi.

**Viktorina darslari.** Bu dars asosan musiqa tinglash jarayonida o'tkaziladi. O'qituvchi bir texnik vosita yordamida o'quvchilarga musiqa qo'yib beradi. O'quvchilar esa bu musiqaning nomi, ijrochisi, kompozitorini topadilar. Bunday darslar "Kompozitor, ijrochi va tinglovchi" mavzusida ham uyushtirilishi ham mumkin.

Darsda o'qituvchi o'quvchilarni qatorlarga, ya'ni guruxlarga bo'ladi. Har bir guruxning faolligiga, to'g'ri javoblariga qarab ball berib boriladi. Viktorina darslari o'quvchilarni nafaqat musiqa tinglash, balki qo'shiq kuylash jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Bunda o'quvchilar musiqa asarlarini yaratuvchilari kompozitor, shoir ijrochilari haqida ham ma'lumotlar bilan tanishadilar. Qo'shiqlarning janri qaysi mahalliy uslubga xosligi, ijro etilish holati haqida bilimlarini mustaxkamlashga ham ijobiy ta'sir qiladi.

**Baxs- munozara darslari.** Musiqa asarlarini badiiy va nazariy taxlil qilish - musiqa tarixi, adabiyoti, nazariyasi kabi musiqiy-nazariy bilimlarni mustaxkamlashga qaratiladi. Bu mashg'ulot turida asosan chorak va yarim yil davomida olingan musiqiy-nazariy bilimlarga tayaniladi. Baxs-munozara darslari o'quvchilarning avval egallagan bilimlarini sinovdan o'tkazishda ham yaxshi usul hisoblanadi. Bu dars boshqa darslardan o'ziga xos jixatlaridan farq qiladi, ya'ni bu darslarda bir mavzu yoki biror janr, nazariy tushuncha yuzasidan tortishuv bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'z fikr – muloxazalari bilan o'rtoqlashadilar. Har bir fikr isbotlanadi va to'g'ri javob qabul qilinadi.

Baxs-munozara darslari o'quvchilarda puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Bu darslar o'quvchilarni xozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga, nutqlarini o'sishiga yordam beradi. Bu dars pedagogik jixatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, katta tarbiyaviylik kasb etadi. Munozarali savollarni o'qituvchi tuzadi va o'quvchilarni baxsga chorlaydi. O'qituvchi savollar bilan o'quvchilarni faollashtirib turadi, o'quvchilarning javoblarini izchil va aniq bo'lishiga ko'maklashib turadi. Bunday darslar o'quvchilarni bir birlariga yanada yaqinlashtiradi, muomala madaniyatlarini o'sishiga ham ijobiy ta'sir etadi. Darsni uyushtirish o'qituvchi va o'quvchilarda dars jarayonida bir qator qoidalarga amal qilishlarini taqozo etadi:

O'quvchilardan:

- O'z fikrlarini tushunarli qilib ifodalash;
- Munozarada o'rtoqlariga nisbatan xurmatda bo'lish;
- Odob bilan (qo'l ko'tarib) javob berish;
- Savol, masala mazmunini anglash, boshqalar fikrini diqqat bilan tinglash;
- Mavzudan chetga chiqmaslik;
- Fikri noto'g'riligini tan olish, o'z fikrini isbotlashga intilish.

O'qituvchidan:

- o'quvchilarni munozaraga tortish;
- o'quvchilarni qiziqтира olish;
- xatolarni to'g'irlab tushuntirib borish;
- fikrlarni umumlashtirib va tizimga solib turish;
- faol ishtirok etganlarni rag'batlantirish.

**Quvnoqlar va zukkolar darsi.** Bu dars musobaqa tarzida tashkil etiladi va bir kompozitor yoki musiqiy asarning yaratilish tarixiga bag'ishlanishi mumkin. Bu o'rinda kopozitorning maxorati, badiiy obrazi, voqyelik tasviri, ularga singdirilgan g'oyalarni anglash, mushoxada yuritish, qo'llanilgan vositalarni tushunishga undash alohida o'rin tutadi. Bunday darslar o'quvchilarda topqirlik, faollik, zukkolik, ziyraklik fazilatlarini shakllantiradi.

Quvnoqlar va zukkolar noan'anaviy dars bo'lib, uni bir necha yo'nalishda o'tkazish mumkin. O'tilgan mavzularni takrorlash, savol – javob tarzida, tinglangan musiqa asarining mazmun mohiyatini izohlash, shuningdek turli didaktik o'yinlar tarzida uyushtirish mumkin. Bunday darslarda musiqiy o'yinlarni uyushtirishning keng imkoniyatlari mavjud. Masalan, televideniye orqali namoyish etiladigan “Mo'jizalar maydoni”, “Oxangrabo”, “Balli qizlar”, “Kuyni top” kabi shakllardan foydalanish mumkin. Bunday darslarda o'quvchilar ikki guruxga bo'linadi: - qizlar-bolalar, qatorlararo, parallel sinflar bo'lishi mumkin. Har bir jamoaga sardor saylanadi. Ikki raqib jamoa o'z bilimlarini sinab ko'rishadi. Faol qatnashgan jamoalar rag'batlantiriladi. Nufuzli pedagoglar, yuqori sinf o'quvchilaridan saylangan juri javoblarni baxolab boradi. Musobaqaning shartlari avval o'tilgan darslarga asoslanmog'i darkor. O'quvchilarga bu xaqda bir hafta oldin ma'lum qilinadi va hafta davomida o'quvchilar unga tayyorgarlik ko'rib yurishadi. Darsda musiqiy ko'rinishlar, qo'shiq-raqslarga ham ahamiyat beriladi. Dars so'ngida to'plangan ballar umumlashtirilib, e'lon qilinadi va g'olib jamoa rag'batlantiriladi. Quvnoqlar va zukkolar darslardagi ta'limiy o'yinlar, mitti bosh qotirmalar, sirli-qiziqarli topshiriqlar, har hil faoliyatlarni almashib turishi o'quvchilarni fikrlashga odatlantiradi, zerikish va toliqishdan saqlaydi.

Quvnoqlar va zukkolar darslarini tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- o'rganilgan mavzularning mazmun va mohiyatini, o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlarini xisobga olish;
- dars mavzusini va dars o'tkaziladigan haqida o'quvchilarga bir hafta oldin xabar berish;
- musobaqa shartlarini hamma bilan kelishilgan holda belgilash va tasdiqlatib olish;
- qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlarning har bir sharti uchun vaqtini, ishtirokchilar sonini kelishib olish;
- o'yinlar faoliyatlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosliliga ahamiyat berish;
- shartlarni xolisona, xaqqoniy baxolanishini ta'minlash;

- g'olib tomonini, mag'lub tomonini kamsitmagan holda rag'batlantirish.

**Taxlil darsi.** Bu dars asosan musiqa savodi, musiqa tinglash va qo'shiq kuylash jarayonlarida o'tilgan asarlarni mukammal taxlil qilishga qaratiladi. Musiqa asarlarini taxlil qilishda asar mualliflari haqida ma'lumotlar berish, asarning tempi, xarakteri, ritmi, o'lchovi, lad – tonalligi, shakli qanday jamoa uchun moslab yozilganligi, janri, g'oyaviy mazmunini o'rganish-bularning barchasi musiqiy-nazariy bilimlar majmuini bildiradi. Taxlil darsini qanday tashkil etish va o'tkazish o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribasiga bog'liq.

**Suhbat darslari.** Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini jonli, qiziqarli va samarali kechishida muhim uslublardandir. O'qituvchi bu darsga ham alohida tayyorgarlik ko'rishi, reja asosida olib borishi kerak bo'ladi, savollarni tuzish, tanlash, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish, aniqlashni eng muhim yo'llaridan xisoblanadi. Savollar og'zaki tarzda berilib, o'quvchilarni o'z bilganlarini aniq ifoda etish, bilmaganlarini javoblar natijasiga ko'ra bilib olish, mustahkamlab borishga imkon yaratadi. O'qituvchi o'quvchilarni javoblarini diqqat bilan kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda tuzatib, to'ldirib boradi. Suhbatda mustaqil o'rganilgan qo'shiq, tinglangan namuna, ko'rilgan konsert yoki musiqiy ko'rsatuvlar haqida so'zlashish mumkin. Suhbat darslarida o'qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Suhbat mavzusiga oid qiziqarli savollar tayyorlash;
2. Savollar mavzuni aniq yoritishga bag'ishlangan;
3. O'quvchilarni erkin muloqot qilish, o'z fikrlarini tortinmasdan to'liq ifoda etishlariga sharoit yaratish;
4. Savollarni izchil bir – birlarini to'ldirib borishiga erishish;
5. Barcha o'quvchilarni faol qatnashishlariga erishish;
6. Muomalada o'rnak bo'lish;
7. Fikrlarni umumlashtirish va xulosa chiqarish.

**Musiqiy sayoxat darslari.** Musiqashunoslik manbalarini o'rganish, biror kompozitor, san'atkor, xofiz, pedagog, bastakor ijodi bilan kengroq tanishish

uchun ularni uy-muzeyi, ijodxonasiga, ijodiy jamoaga, tanlovlar, xisobot konsertlariga, ijodiy safar – sayoxat uyushtiriladi.

**Stol atrofidagi darslar.** Asosan musiqiy-nazariy bilimlarni mustaxkamlash va sinovdan o'tkazish uchun tashkil etiladi. O'quvchilar gurux (jamoalarga bo'linadilar. O'qituvchi maxsus tayyorlangan konvertlarda savollarni qator qilib terib qo'yadi. Jamoa sardorlari konvertlarni tanlaydilar va jamoasi bilan javobga tayyorlanadi va galma –galdan javob berishadi. Dars ohirida eng ko'p ball yiqqan jamoa g'olib deb topiladi. Bu televizion (zakovat) o'yiniga o'xshab ketadi.

Ulardan tashqari hozirda tanilgan kirib kelayotgan juda ko'plab interfaol texnologiyalar borki, bunday texnologiyalarni aksariyati o'qituvchi bilan o'quvchilarni xamkorlikda ishlashiga, ya'ni o'quvchilarni passiv tinglov, yoki ijrochi bo'libgina qolmasdan darsni har bir faoliyatini aktiv ishtirokchisi sifatida qatnashishlarini ko'zda tutadi.

Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni nazarda tutganligiga bog'liqdir.

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan usullar juda ko'p. Bu usullar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'pchilikni o'qitishga yoki individual ta'lim berishga mo'ljallangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatan o'yinga moyil bo'lishlarini xisobga olgan xolda ularni darsga qiziqishlarini kuchaytirish uchun "o'yin xarakteridagi" turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darsning xar bir faoliyatini amalga oshirishda uni bolalar bilimi va xayotiy tajribalariga asoslanish yaxshi bo'ladi.

Hozirgi kunda ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish kuchayib ommalashib bormoqda. Chunki, pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar o'quvchi yoshlarni bilimlarini puxta egallashlarini ta'minlaydi. Biz tadqiqotimizni amaliy faoliyatida bir qator shunday texnologiyalarni dars jarayonida qo'lladik va ularning samaralarini aniqlashga erishdik. Shunday texnologiyalardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

## **Pantomima.**

O'quvchilar doira shaklida o'tiradilar. O'qituvchi o'quvchilarga musiqa cholg'u asboblarini rasmlarini tarqatadi. O'quvchilarning vazifasi ushbu cholg'u asboblarida qanday xolatda kuy ijro etilishini xarakterlar bilan ko'rsatishi kerak. Qolganlar esa nazorat qilib, qaysi cholg'u asbobi ko'rsatilayotganini ko'rsatishlari kerak.

Masalan, rasmda doira asbobi berilgan bo'lsa stulda o'tirgan holatda qo'l xarakati bilan ko'rsatib beradi. Karnay, surnay, g'ijjak, dutor, fortepiano kabi cholg'ularni – mos qo'l xarakatlari bilan tasvirlaydilar.

**“Bilag'onlar ko'chasi”.** Bu uslubda bolalarga kompozitorlarning rasmlari ko'rsatiladi. O'quvchilar uning ismi sharifi, ijodi, asarlari haqida so'zlab berishadi. Yoki ma'lum ifodaviy vositalar – kalit, dinamik belgi, alterasiya belgilari rasmi ko'rsatiladi, bolalar unga ta'rif berishadi, qoida va vazifalarni aytib berishadi.

**“Jumboq ko'chasi” usuli.** Bu usulda guruxlar etiboriga rebus yechish vazifasi yuklatiladi.

|       |       |       |
|-------|-------|-------|
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |
| _____ | _____ | _____ |

**“Sinkveyn” usuli.** O'quvchilar guruxlarga bo'linadilar. O'qituvchi har bir guruxga o'quvchilar o'rgangan turli qo'shiqlardan 4 takt kirish qismini ijro etib boshlab beradi. Guruxlar navbat bilan ijro etilgan asar nomini aytib, davom ettirishlari kerak. Vazifani to'g'ri bajargan gurux rag'batlantiriladi.

**Aqliy xujum.** Bu usul xar o'quvchiga o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishiga imkon beruvchi uslubdir. Bu uslub mohiyatiga ko'ra savol yuzasidan extimol tutilgan barcha fikrlarini, aytarli

to'g'ri bo'lmaganlarini ham inobatga olishdan iborat. Fikrlar yozib boriladi va umumlashtirilib xulosa chiqariladi.

“Aqliy xujum” ni o'tkazish tartibi:

1. O'qituvchi sinfga savol, topshiriq yoki muammo tashlaydi va o'quvchilardan o'z fikrlarini aytishlarini so'raydi.
2. Istisno tariqasida barcha fikrlar yozib boriladi.
3. O'qituvchi o'quvchilar bilan g'oyalarni taxlil qiladi., tuzatishlar kiritadi va eng muhim va to'g'rilarini ajratib ko'rsatadi.


Aqliy xujumni o'tkazish qoidalari:

1. “Aqliy xujum” o'tkazish uchun belgilangan vaqt reglamentiga aniq rioya etish lozim.
2. Belgilangan vaqt doirasida barchaga o'z fikrlarini bayon etish imkoniyatini berish kerak.
3. O'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar tanqid va muxokama qilinmasligi va baholanmasligi lozim.
4. Zarur bo'lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrga tuzatish kiritish mumkin.

**“Tarmoqlar” metodi (klaster).**

Fikrlarning tarmoqlanishi-bu pedagogik strategiyasi bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchilarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashga o'rgatadi.

Bu metod biron bir mavzuni chuqur o'rganish, avvalo o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish, kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklda ifodalashga undaydi. Masalan:



Musiq'a asari jumlasiga o'quvchilar mos so'zlarni topib, ularni strelkalar yoniga yozadilar.

Xulosa, bunday usullarni qo'llashda o'qituvchi avvalo uni o'z o'rnida samarali bo'lishiga ishongan holda yondashish kerak bo'ladi va bularning barchasi o'quvchilarning umum musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilmog'i lozim.

### **3.2. O'quvchilarning musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish jarayonining samadorligi.**

Musiq'a darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uni samaradorligi ta'lim olib borilgan jihat, pedagogik shart-sharoit, darslarni pedagogik, metodik tomondan uyushtirilishi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati, uning imkoniyatlari va boshqa komponentlarga (texnik, ko'rgazmali vositalar, o'quv-metodik manbalar) bog'liq. Shu tufayli musiq'a darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatini quyidagi masalalarni hal qilish lozimligini ko'rsatadi.

1. O'quvchilarni nazariy savodxonligini rivojlantirish darsning xar bir faoliyat turida e'tiborga tutilishi;
2. Dars faoliyatlari, xususan musiq'a tinglash, qo'shiq kuylash faoliyatida asarlarni nazariy tomonidan taxlili, tizimli tarzda o'tkazilib borilishi;
3. O'quvchilarni nazariy bilimlarni o'zlashtirishlari, dars mavzusi, o'rganilayotgan qo'shiqlar bilan bog'langan holda, xayotiy misollar, nazariy qoidalarni amaliy faoliyatda namoyon etilishi, ayrim nazariy tushunchalar (interval, akkord,

uhtovushlik, lad tovushqatori, major, minor)ni fortepiano yoki istalgan cholg'u asboblari yordamida ko'rsatib berish, namoyish qilish, o'quvchilarga vazifa qilib berish, ular tomonidan o'zlashtirilishini nazariy qilib borish, muntazam ravishda rag'batlantirib baholab borish kabilar muhim didaktik omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kirib kelishi nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda an'anaviy usullar bilan birgalikda ulardan o'z o'rnida va unumli foydalanish, faqatgina tushuntirish, ko'rsatib berish bilan chegaralanib qolmay nota yozuvi bilan bog'liq bilimlarni (musiqaning ifoda vositalari) ifodaviylik hususiyatlari, musiqiy til-melodiya(kuy), ritm, temp, dinamik tuslar, intervallar, o'lchov, tonallik, ton, yarim ton, engarmonizm, reprizalar, pauzalar, gammalar, akkordlar, ularning aylanmalari, dirijyorlik qoidalari, registr va xakozolar, forma hosil qiluvchi elementlari malakalarini shakllantirib borishga diqqatni qaratish lozim.

Musiqqa savodi faoliyatida muhim nazariy tushunchalar, qonun –qoidalarni turli shaklda ifodalash imkoniyatlarini xisobga olib, ularni mantiqiy ketma-ketlikda amaliyot bilan bog'lab, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.


Hozirgi kunda respublikamizda olib borilayotgan musiqqa ta'limiga oid ayrim tadqiqotlarda o'qitishning texnik vositalaridan, shu o'rinda "Sibelius" dasturi imkoniyatlaridan foydalanish bu jarayonni samaradorligini sezilarli darajada oshirishi to'g'risida ilmiy xulosalar bayon qilinayotganligini e'tiof etmoq joizdir. Bizning bu boradagi kuzatuvlarimiz ham shuni ko'rsatadiki, "MICROSOFT" korporasiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "SIBILIUS" deb nomlangan nota matnlari va ovozlari ustida ishlash dasturi 1998-yilda yaratilgan bo'lsada, amaliyotda keng qo'llanilmay kelayotganligi taajublanarlidir. Uning afzalligi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'pgina tushunchalarni ham mazmunan ham mohiyatan tushuntirish, ahborotni qabul qilish va o'zlashtirish imkoniyatlarini oshiradi. Unda nota matnlarini yozish, ularni tovush yordamida tinglash mumkin.

Bizning dissertasiyani bajarish davomidagi amaliy tadqiqotlarimizda musiqqa darslarida o'quvchilarning musiqqa savodi faoliyatida o'zlashtiriladigan bilim,

tushunchalarni har jixatdan samarali kechishiga xizmat qiladigan ish usul, shakl, vositalaridan unumli foydalanishiga e'tibor qaratildi.

Tajribali ishlar Samarqand shaxridagi № 29, 32-maktab xamda Payariq tumanidagi № 6, 1-umumta'lim maktablarida olib borildi. Tajriba sinov-ishlari va nazorat ishlari tegishli ravishda uch bosqichda o'tkazilib unda 256 ta o'quvchi ishtirok etdi.

Tajribaviy tadqiqotning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat bo'ldi.



Ko'rsatilgan komponentlar tajriba-sinov ishlari jarayonida o'zaro bir butunlikda o'zaro yaxlit aloqada va bog'liqlikda ko'rib chiqildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida har bir o'quvchi, sinflarda o'qitilayotgan nazariy bilimlar, ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishning sifat ko'rsatkichlarida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni aniqlash imkonini beruvchi nazariy ishlari olib borildi.

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyatini o'qitilish jarayonida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarini o'zlashtirishlarining asosiy yakuniy ko'rsatkichlari sifatida qo'yidagilar belgilandi:

- Nota yozuviga oid eng asosiy va oddiy qonun – qoidalarini (nota yozuvi matni, cho'zimplari, nota yo'li, unda tovushlarni yozilishi, kalitlar, major, minor tonalliklar, dinamik belgilar, pazalar, ritm, temp, alterasiya belgilari, nota cho'zimini uzaytiruvchi, qisqartiruvchi belgilar, intervallar, akkordlar, musiqa adabiyotiga oid ma'lumotlar, kompozitorlik, bastakorlik uslublari, akademik janrlar, xalq musiqasining ommaviy janrlari maxalliy uslublar, mumtoz va maqom musiqasi) o'zlashtirish darajasi;
- Tinglash va kuylash uchun tavsiya etilgan asarlarni o'zlashtirishlari, ularni nazariy taxlil qilish imkoniyatlari, ta'rif berishlari;
- Nazariy qonun qoidalarini amaliy faoliyatda qo'llay olish, ularni ifodaviylik ahamiyati va o'rnini to'g'ri tushunishlari, o'zlari yozib, o'qib ko'rsata olishlari;

- Eng oddiy kuy parchalari, aytim va mashqlarni varaqdan o'qiy olish (solfedjiolash) darajalari;
- Cholg'u asboblarida chalishga qiziqishlari, (chala olishlari);

### 1-jadval

Musiqqa nazariyasiga oid bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi ko'rsatkichlari va mezonlari.

| № | Ko'rsatkichlar  | Mezonlar  |
|---|---|---|
| 1 | Nota yozuviga oid asosiy qonun-qoidalarni o'zlashtirish                           | Musiqqa nazariyasiga oid bilimlarni o'zlashtirilganlik darajasi;<br>Musiqqa adabiyoti (tarixi)ga oid bilimlar;<br>- Vokal-xor malakalarini o'zlashtirishi;<br>Solfedjiolash malakalarini o'zlashtirilganligi. |
| 2 | Musiqani ifodaviy imkoniyatlari, musiqaviy obraz yaratishdagi ahamiyatini bilish. | - Musiqaviy ifoda vositalarni qo'llanish qonunlarini o'zlashtirish;<br>- Musiqqa asarlari taxliligacha oid bilimlarni o'zlashtirish.  |
| 3 | Musiqaning shakl, janr xususiyatlarini bilish.                                    | - Oddiy shakllar, qismli shakllar, janrlar va ularni o'ziga xos xususiyatlari haqida bilish;<br>- Murakkab janrlar (kompozitorlik uslubi) haqida bilish.  |
| 4 | Vokal ijrochiligi, xor va xorshunoslik, dirijyorlikka oid bilimlar.               | - Kuylash holati, nafassoiz, ansambllik, diksiya, intonasiya;<br>- Auftak, temp, ijroni boshlash, ijroni tugallash;<br>- Dirijyorlik ko'rsatmasi, sxemalari,  |

|   |  |  |
|---|--|--|
|   |  | dirijyorlik ishoralarini tushunish.  |
| 5 | Kuyga tavsif bera olish.                 | Xalq musiqasi, janrlari, xor, orkestr musiqalarini ajrata bilish, ular haqida nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirganligi; |
| 6 | Nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish. | Nazariy qoidalar, ifodaviy vositalarni fortepiano yoki boshqa cholg'u sozida ko'rsatib bera olish;                     |

Tajriba - sinov ishlari ishlab chiqilgan reja va dastur bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirildi. O'quvchilarning musiqa savodi bo'yicha bilim va ko'nikma malakalarining o'zgarishi mezonlarga tayangan holda uch bosqichli (joriy, oraliq va yakuniy) qismlar bo'yicha baxolab borildi.

O'quvchilarni musiqiy nazariy savodxonligini oshirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan ishlari uning ko'rsatkichlarini bir muncha ko'tarilishiga olib keladi.

Bunda ayniqsa musiqa darslariga kiritilgan nazariy qoidalar, musiqaviy ifoda vositalarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va uni nota yozuvida kuy-qo'shiqlarida aks etgan belgilarga qarab tushuntirib berishlariga erishish muhim. Bunda asosiysi bunday bilim va malakalar, ularning amaliy faoliyatiga (kuylash, tinglash, taxlil qilish) katta ta'sir ko'rsatdi.

Dastlabki tajriba natijalariga asosan o'quvchilarning nazariy savodxonlikka oid bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini qoniqarli darajada deb qarash mumkinligiga amin bo'ldik.

## 2-jadval

O'quvchilarning musiqa savodxonligi bo'yicha musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishlik darajalari.

(Tajriba-sinov oldidan.)

| Darajalar % |                  |        |       |      |
|-------------|------------------|--------|-------|------|
| Sinflar     | O'quvchilar soni | Yuqori | O'rta | Past |
| Tajriba     | 130              | 11,03  | 36,6  | 52,1 |
| Nazorat     | 126              | 12,9   | 38,5  | 48,6 |

Olingan natijalar dastlabkisidan ancha yuqori ko'rsatkichlarni berdi. Bu esa biz qo'llagan ish usul va shakllarni samarali, kechishligini ko'rsatar edi.

Taxliliy natijalar o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarni tajriba guruhida 88,91 ga yuyuqori va o'rta darajada o'zlashtirganliklarini ko'rsatdi.

## 3- jadval

O'quvchilarning musiqiy – nazariy bilimlarini o'zlashtirganlik darajalari.

(Tajriba-sinovdan keyin).

| Darajalar % |                  |        |       |      |
|-------------|------------------|--------|-------|------|
| Sinflar     | O'quvchilar soni | Yuqori | O'rta | Past |
| Tajriba     | 130              | 39,8   | 49,1  | 11,1 |
| Nazorat     | 126              | 10,9   | 42,3  | 46,8 |

va 3 jadvallar asosida tajriba va nazorat guruxlaridagi natijalarni matematik, statistik taxlil qilib, tajriba yakunidagi xolat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dienersiya, variyasiya ko'rsatkichlari, studentning tanlanma mezoni, student mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik kriteriyskiy va ishonchli chetlanishlarni topildi.

| $\bar{X}$ | $\bar{Y}$ | $S_x^2$ | $S_y^2$ | $V_x$ | $V_y$ | $T_{xly}$ | K      | $X_{n,m}^2$ | $\Delta m$ | $\Delta k$ |
|-----------|-----------|---------|---------|-------|-------|-----------|--------|-------------|------------|------------|
| 2,29      | 1,64      | 0,4259  | 0,4504  | 28,5  | 40,9  | 7,85      | 253,51 | 50,65       | 0,1        | 0,12       |

Natijalarda tajriba nazorat guruxi uchun neyman g'oyasi asosida ishonchli intervallari topildi.

$$X - \text{tkp} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq X + \text{tkp} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}}$$

$$Y - \text{tkp} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq Y + \text{tkp} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}}$$

$$2,29 - 0,1 \leq a_x \leq 2,29 + 0,1$$

$$1,64 - 0,12 \leq a_y \leq 1,64 + 0,12$$

$$2,19 \leq a_x \leq 2,39$$

$$1,52 \leq a_y \leq 1,76$$

Olingan natijalardan tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini xisoblaymiz.

Bizga ma'lum  $\bar{X} = 2,29$ ;  $\bar{Y} = 1,64$ ;  $x = 0,1$ ;  $y = 0,12$  ga teng

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

Bundan ma'lum bo'ladiki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruxidagilarga nisbatan yuqori va biz olib borgan tadqiqot o'zining ijobiy yechimini topdi.

## UMUMIY XULOSALAR

Musiqqa darslarida o'quvchilarni musiqiy- nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatining metodik asoslarini ishlab chiqish yuzasidan tadqiqot ishining yakunlari bizni quyidagi xulosalar chiqarishga olib keldi.

1. Musiqqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini oshirish birinchi navbatda darslarni DTS va o'quv dasturi asosida, ilg'or ish usullari, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'tilishiga ko'p jixatdan bog'liq bo'ladi.;
2. Darsda o'quvchilarni qiziqish, xoxish-istaklarini xisobga olish, ko'rgazmali texnik vositalardan unumli foydalanish;
3. O'quvchilarni darsda faolligini ta'minlash, vazifalar topshirish, ularni bajarilishini nazorat qilib borish;
4. Faol o'quvchilarni rag'batlantirib borish, o'zlashtirishi sust o'quvchilar bilan qo'shimcha va individual topshiriqlar berib borish;
5. Doimiy ravishda o'quvchilarni xotira, musiqiy tafakkur, didi, diqqati kabi texnologik xususiyatlarini kuzatib borish, dars jarayonida nazarda tutish;
6. Dars faoliyatlari ketma-ketligi, tizimliliigi, ta'lim va tarbiya birligini, o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalash xislatlarini shakllantirish;
7. Musiqaning nazariy jixatlarini o'zlashtirish jarayonida amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berish;
8. O'quv materiallarini ham nazariy, ham amaliy o'zlashtirilishiga erishish, o'quvchilarda o'z bilimlarini amalda qo'llay olishlariga intilish xissini kuchaytirish;
9. Musiqqa nazariyasi, musiqqa tarixi, vokal, xor ijrochiligi, musiqqa asarlari taxlili, solfedjio fanlarini o'zaro aloqadorlik xususiyatlaridan unumli foydalanish, bu fanlarga tegishli bilimlar umummusiqiy nazariy bilimlar majmuasi ekanligini nazarda tutgan holda har bir darsga ijodiy yondashish, amaliy mashqlar bajarish faoliyatini fortepiano, kompyuretlar yordamida olib borish bu jarayonning samaradorligini oshirishning muhim omillari xisoblanadi.

## TAVSIYALAR

- Musiqa nazariyasi qonun-qoidalariga tayangan bilimlarni o'quvchilar tomonidan darsning barcha faoliyatlari davomida o'zlashtirishlariga erishish asosiy vazifa sifatida xisobga olinishi lozim;
- O'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirishlarida eng muhim xisoblanishi pedagogik shart-sharoitlarni amaliyotda xisobga olib ish tutish lozim;
- Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqqa tinglash, qo'shiq kuylash faoliyatlarida musiqiy nazariy bilimlarni rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur va rejalar ishlab chiqish;
- Musiqa madaniyati fani o'qitilishi bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib, amaliyotga tadbiiq etish;
- Musiqiy ta'lim tizimi, o'qitish mazmuni, qo'llaniladigan ish usuli vosita va shakllarida musiqiy va musiqiy-nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yetakchi e'tibor qaratish;

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. I.Karimov. “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”. 2-tom T.:O'zbekiston, 1996-yil 379-bet.
2. I.Karimov Bunyodkorlik yo'lidan 4-tom T.O'zbekiston.: 1996 379-bet.
3. I.Karimov “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz”. 7-tom T.:O'zbekiston 1999-yil 413-bet
4. I.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” T.: Ma'naviyat 2008-yil
5. I.Karimov “Zamonaviy kadrlar tayyorlash islohotlar muvaffaqiyatining asosi”. Ma'rifat 1998,25-yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni ,“ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Ma'rifat 1998-y 1-aprel
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni. O'zbekiston ovozi 1995-yil 21-oktyabr
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. Bolalar musiqa san'at maktablarining moddiy – texnik bazasini mustaxkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi. Toshkent, Ma'rifat, 2008-yil 7-yanvar.
9. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiyasi. Toshkent XTB 1995-yil.
10. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Musiqa. Ta'lim taraqqiyoti, maxsus 6-7-sonlari 199-yil.
11. Akbarov I.A “Musiqa lug'ati” T.: O'qituvchi, 1987-yil.
12. Akramina O'.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. M., prosveshyeniye, 1983-yil.
13. Baxromeyev V.A “Musiqaning elementar nazariyasi”. T.: O'qituvchi, 1974-yil.
14. Axmedov M. O'qituvchilarda musiqiy nazariy bilimlarni shakllantirishda “Garmoniya kursi”ning pedagogik imkoniyatlardan foydalanish. Falsafa va xuquq – T.: - 2010 №2, 55-bet

15. Axmedov M “Musiqqa madaniyati” fani o’qitilishidagi dasturiy ta’minot. Ta’lim mazmunini modernizatsiyalash: Muommolar, yechimlar. – T.: O’z PITI. 2010-y 141-144-bet.
16. Soipova D.Yu Musiqqa madaniyati fani o’qituvchisiga qo’yiladigan asosiy talablar. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. – T.: O’z PITI, 2004-yil 233-238- betlar.
17. Soipova D.Yu. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o’zlashtirish jarayonini takomillashtirish. O’quv qo’llanma fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi. T.: 2005-yil
18. Soipova D.Yu o’quvchilarga musiqiy madaniyatni shakllantirishga musiqiy nazariy konferensiya materiallari. UzMU-T-, 2005, 97-99-betlar.
19. Musiqqa o’qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni. – T.: TDPU, 2000-yil
20. Solomonova T.Ye. (tuzuvchi). O’zbek musiqqa tarixi. – T.: o’qituvchi, 1981.122-bet
21. Fayzullayeva S.X. O’quvchi-yoshlarning estetik tarbiyasi-T.: o’qituvchi, 1979, 49 bet.
22. Estetik tarbiya asoslari N.A.Kushayev tahriri ostida. –T.: o’qituvchi, 1988. 269 bet.
23. Xasanov A.Sh. Musiqqa va tarbiya . –T.: O’qituvchi, 1993y. 193 bet.
24. Musiqqa 1-sinf uchun darslik. T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2011-yil.
25. Musiqqa 2-sinf uchun darslik T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi o’zb. Nashriyot 2010-yil. Toshkent
26. Musiqqa. O’qituvchilar uchun o’quv qo’llanma. 2-sinf. –T.: G’.G’ulom 2008-yil
27. Musiqqa 3-sinf uchun darslik. T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2010-yil
28. Musiqqa 4-sinf uchun darslik. T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2011-yil.

29. Musiqa 5-sinf uchun darslik. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2007-yil
30. Musiqa 6-sinf uchun darslik. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2004-yil
31. Musiqa 7-sinf uchun darslik. T.: 2008-yil
32. Sh.Ro'ziyev. Xorshunoslik. –T.: O'qituvchi, 1997-yil
33. Gudkova Ye.A, Vasilyeva A.B “Ashula darsligi metodikasi” –T.: - O'qituvchi, 1973.
34. O.Fayziyev va boshqalar. O'zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish. Metodik qo'llanma.-T.: Sharq, 1999y.
35. A. Munavvarov. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 1998y.
36. Axmedov M.M. bo'lajak o'qituvchilarni maktab o'quvchilarida musiqiy-nazariy bilimlarini shakllantirishga tayyorlash. Ped f. Nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat 2011-yil
37. Nurmatov X, Проблемы эстетического воспитания учащихся начальных классов узбекских песен на уроках музыки. Автoreferat dne... nald. Ped nauk. T.: 1982 y.
38. Razzaqov I.R. Formirovaniye нравственных качеств личности учащихся IV-VII классов средствами музыки. Автorefer.dis kond. Ped. nauk Toshkent, 1991 y.
39. Xasanov A.Sh. Vokalniy krujok kak sredstvo razvitiya i usovershenstvovaniya estetikeskogo воспитания учащихся 4-x классов obshyebrazovatelnoy shkole Автoref.dis... kond.ped – nauk. Toshkent,1978-19s.
40. Yu.Buluchevskiy, V.Fomin. Kratkiy muzikalniy slovar dlya uchashixsya-L.Muzika. 1988 y.
41. D.Ommonullayev, Sh.Yormatov va boshqalar. Birinchi sinfda musiqa darslar. Metodik qo'llanma. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1987 y.
42. R.G'.Qodirov, Boshlang'ich maktabda ko'p va ovozli kuylash. –T.: O'qituvchi, 1997y.

**A.Navoiy nomidagi SamDU, “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi magistranti  
Fatliyeva Gulnarining “Musiqi darslarida o’quvchilarni musiqiy va  
musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish” mavzusidagi magistrlik  
dissertatsiyasiga**

**T A Q R I Z.**

Umumta’lim maktablaridagi “musiqi madaniyati” darslarini eng muhim xususiyatlaridan biri uni bir necha faoliyatlar negizida hamda yil va chorak mavzulari doirsida tashkil etilishidir.

Fatliyeva Gulnar tomonidan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi sifatida tadqiq etilgan muammo umumta’lim maktablarida o’quvchilarni musiqiy nazariy savodxon qilib tarbiyalasjga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat va uni yana takomillashtirishga xizmat qiluvchi o’ziga xos metodik tizimni ishlab chiqishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Musiqi darslaridagi barcha faoliyatlar mazmunida olib boriladigan o’quv-tarbiyaviy, ta’limiy vazifalarning bosh maqsadi o’quvchilarni nazariy savodxonligi, amaliy ijrochilik ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Nazariy bilim va amaliy ijrochilikka oid bilim, tushuncha va malakalarini o’quvchilar tomonidan puxta va mukammal o’zlashtirilishiga erishishda o’qituvchi tomonidan qo’llaniladigan ish usullari, vositalari muhim o’rin tutadi. Ayni mana shunday samarali ish usullari, shakl va vositalarini taqdim etish, ularni dars jarayoniga tadbiq etish yo’llarini ishlab chiqish zarur tadqiqot ishining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ish bilan tanishish jarayonida shunday xulosaga keldikki, dissertatsiyaning eng muhim yutug’i o’quvchilarni musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish jarayonini samarali kechishiga yo’naltirilgan va muallif tomonidan samarali deb topilgan ish usullari, tajriba-sinov ishlari orqali asoslangan.

Bizning nazarimizda musiqi darslarimizda o’quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish bo’yicha chiqarilgan xulosa va tavsiyalardan

umumta'lim maktablari musiqa darslarida foydalanish ta'lim sifat va samaradorligini yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Fatliyeva Gulnar tomonidan tadqiq etilgan "Musiqqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishini, uni bajarish bo'yicha "Nizom" talablariga mos bajarilgan ish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Samarqand shahar 1-son Pedagogika  
kolleji musiqa o'qituvchisi:

**F. XAMROQULOVA.**

**A.Navoiy nomidagi SamDU, “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi magistranti  
Fatliyeva Gulnarning “Musiqi darslarida o’quvchilarni musiqiy va  
musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish” mavzusidagi magistrlik  
dissertatsiyasiga**

**T A Q R I Z.**

Mazkur dissertatsiya ishi hozirgi kunda musiqa pedagogikasi uchun dolzarb bo’lib turgan muammoni yechimiga bag’ishlanganligi bilan xarakterlidir. Respublikamizda oliy malakali mutaxassis musiqa o’qituvchilariga va musiqa darslarini yuqori saviyada o’tish imkonini beruvchi uslubiy adabiyotlarga ehtiyojlarning saqlanib qolayotganligini, ushbu ishning o’z vaqtida bajarilgan va musiqa pedagogikasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga molik manba sifatida baholash imkonini beradi.

Ishning kirish qismida tanlangan mavzu muammosining dolzarbligi ishonchli dalillar bilan ilmiy jihatdan to’g’ri asoslangan. Ishning maqsadi va vazifalari, mavzuni yoritish bosqichlari to’g’ri rejalashtirilgan va bularning barchasi tadqiqot ishini muvaffaqiyatli bajarilishida muhim omil bo’lib xizmat qilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “Musiqi darslarida o’quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning nazariy amaliy asoslari” deb nomlanib, uning mazmunida muallif tomonidan o’rganib chiqilgan mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalar, umumta’lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo’naltirilgan faoliyatlar holati, mavjud muammolar atrofigicha tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobi “Musiqi darslarida o’quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari” deb nomlanib unda tadqiqotchi tomonidan o’quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatni yanada takomillashtirish imkonini beruvchi metodik tizim, o’qitishning o’ziga xos texnologiyasi o’z ifodasini topgan.

Olib borilgan amaliy tajriba-sinov ishlari muallif tomonidan qo'llanilgan ish usul va shakllarini yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa dissertatsiyaning ishni bajarishga ilmiy jihatdan to'g'ri yondoshganligidan va dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli yakunlaganligidan dalolat beradi.

O'ylaymizki ushbu tadqiqot ishi mazmuni bilan tanishish va qo'llanilgan ish usullaridan o'quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini shakllantirishda foydalanish ijobiy samaralar beradi.

Mazkur mavzu muammosini kelgusida yanada yirikroq ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida nomlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilishiga ishonaman va uni ochiq himoyaga tavsiya etilishini maqullayman.

P.f.n. Dotsent:

**N.S.QIYOMOV.**

**A.Navoiy nomidagi SamDU, “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi magistranti  
Fatliyeva Gulnarining “Musiqi darslarida o’quvchilarni musiqiy va  
musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish” mavzusidagi magistrlik  
dissertatsiyasiga**

**T A Q R I Z.**

Umumta’lim maktablaridagi “musiqi madaniyati” darslarini eng muhim xususiyatlaridan biri uni bir necha faoliyatlar negizida hamda yil va chorak mavzulari doirsida tashkil etilishidir.

Fatliyeva Gulnar tomonidan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi sifatida tadqiq etilgan muammo umumta’lim maktablarida o’quvchilarni musiqiy nazariy savodxon qilib tarbiyalasjga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat va uni yana takomillashtirishga xizmat qiluvchi o’ziga xos metodik tizimni ishlab chiqishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Musiqi darslaridagi barcha faoliyatlar mazmunida olib boriladigan o’quv-tarbiyaviy, ta’limiy vazifalarning bosh maqsadi o’quvchilarni nazariy savodxonligi, amaliy ijrochilik ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Nazariy bilim va amaliy ijrochilikka oid bilim, tushuncha va malakalarini o’quvchilar tomonidan puxta va mukammal o’zlashtirilishiga erishishda o’qituvchi tomonidan qo’llaniladigan ish usullari, vositalari muhim o’rin tutadi. Ayni mana shunday samarali ish usullari, shakl va vositalarini taqdim etish, ularni dars jarayoniga tadbiq etish yo’llarini ishlab chiqish zarur tadqiqot ishining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ish bilan tanishish jarayonida shunday xulosaga keldikki, dissertatsiyaning eng muhim yutug’i o’quvchilarni musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish jarayonini samarali kechishiga yo’naltirilgan va muallif tomonidan samarali deb topilgan ish usullari, tajriba-sinov ishlari orqali asoslangan.

Bizning nazarimizda musiqi darslarimizda o’quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish bo’yicha chiqarilgan xulosa va tavsiyalardan

umumta'lim maktablari musiqa darslarida foydalanish ta'lim sifat va samaradorligini yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Fatliyeva Gulnar tomonidan tadqiq etilgan "Musiqqa darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishini, uni bajarish bo'yicha "Nizom" talablariga mos bajarilgan ish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Samarqand shahar 1-son Pedagogika  
kolleji musiqa o'qituvchisi:

**F. XAMROQULOVA.**

**A.Navoiy nomidagi SamDU, “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi magistranti  
Fatliyeva Gulnarning “Musiqi darslarida o’quvchilarni musiqiy va  
musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish” mavzusidagi magistrlik  
dissertatsiyasiga**

**T A Q R I Z.**

Mazkur dissertatsiya ishi hozirgi kunda musiqa pedagogikasi uchun dolzarb bo’lib turgan muammoni yechimiga bag’ishlanganligi bilan xarakterlidir. Respublikamizda oliy malakali mutaxassis musiqa o’qituvchilariga va musiqa darslarini yuqori saviyada o’tish imkonini beruvchi uslubiy adabiyotlarga ehtiyojlarning saqlanib qolayotganligini, ushbu ishning o’z vaqtida bajarilgan va musiqa pedagogikasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga molik manba sifatida baholash imkonini beradi.

Ishning kirish qismida tanlangan mavzu muammosining dolzarbligi ishonchli dalillar bilan ilmiy jihatdan to’g’ri asoslangan. Ishning maqsadi va vazifalari, mavzuni yoritish bosqichlari to’g’ri rejalashtirilgan va bularning barchasi tadqiqot ishini muvaffaqiyatli bajarilishida muhim omil bo’lib xizmat qilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “Musiqi darslarida o’quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning nazariy amaliy asoslari” deb nomlanib, uning mazmunida muallif tomonidan o’rganib chiqilgan mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalar, umumta’lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo’naltirilgan faoliyatlar holati, mavjud muammolar atrofigicha tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobi “Musiqi darslarida o’quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari” deb nomlanib unda tadqiqotchi tomonidan o’quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatni yanada takomillashtirish imkonini beruvchi metodik tizim, o’qitishning o’ziga xos texnologiyasi o’z ifodasini topgan.

Olib borilgan amaliy tajriba-sinov ishlari muallif tomonidan qo'llanilgan ish usul va shakllarini yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa dissertatsiyaning ishni bajarishga ilmiy jihatdan to'g'ri yondoshganligidan va dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli yakunlaganligidan dalolat beradi.

O'ylaymizki ushbu tadqiqot ishi mazmuni bilan tanishish va qo'llanilgan ish usullaridan o'quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini shakllantirishda foydalanish ijobiy samaralar beradi.

Mazkur mavzu muammosini kelgusida yanada yirikroq ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida nomlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilishiga ishonaman va uni ochiq himoyaga tavsiya etilishini maqullayman.

P.f.n. Dotsent:

**N.S.QIYOMOV.**

**A.Navoiy nomidagi SamDU, “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi  
magistranti Fatliyeva Gulnarning “Musiqqa darslarida o’quvchilarni  
musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish” mavzusidagi  
magistrlik dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar**

**X U L O S A S I.**

Umumta’lim maktablarining “musiqqa madaniyati” darslarida o’quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini shakllantirish o’ziga xos pedagogik, metodik yondoshuvlar asosida ish tutishni talab qiladi.

Fatliyeva Gulnar tomonidan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi sifatida tadqiq etilgan muammo umumta’lim maktablarida o’quvchilarni musiqiy nazariy savodxon qilib tarbiyalasjga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat va uni yana takomillashtirishga xizmat qiluvchi o’ziga xos metodik tizimni ishlab chiqishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir va uning nazariy, ilmiy, metodik va didaktik asoslari ochib berilgan.

Dissertatsiya uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro’yixatidan iborat tarkibiy tuzulishda bajarilgan.

Ishning kirish qismida mavzu muammosining dolzarbligi, maqsad vazifalari, ilmiy amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

“Musiqqa darslarida o’quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari” deb nomlangan birinchi bob mazmunida musiqqa darslarida musiqqa savodxonligi faoliyatida olib boriladigan pedagogik faoliyat mazmuni, nazariy savodxonlikning o’quvchilar musiqqa madaniyatini shakllantirishdagi o’rni va ahamiyati, musiqiy-nazariy savodxonlik bo’yicha o’quvchilarning bilim va malakalariga qo’yiladigan standart talablariga tarif berilgan.

Tadqiqot ishining “Musiqqa darslarida o’quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobida umumta’lim maktablarining boshlang’ich

sinflarida o'quvchilarning musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish metodik shart-sharoitlari va bu jarayonni samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ish shakl, usul va vositalari haqida fikr yuritilgan. Muallif tomonidan samarali deb topilgan ish usullarini amaliyotga tadbqiq etish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari tadqiqotning ilmiy farazini muvaffaqiyatli yechim topganligini va tadqiqotchining o'z izlanishlariga ilmiy jihatdan to'g'ri yondoshganligini bildiradi.

Tadqiqotning bajarish davomida erishilgan natijalar, chiqarilgan xulosa va ishlab chiqilgan tavsiyalar musiqa pedagogikasi va metodikasini boyitishga, musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Dissertatsiya, uni bajarishga qo'yilgan talablarga javob beradigan darajada yozilgan. Shu bois uni mustaqil bajarilgan va tugallangan tadqiqot ishi sifatida baholash bilan ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

Dots. OBIDOV F. M.

**A.Navoiy nomidagi SamDU, “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi  
magistranti Fatliyeva Gulnarning “Musiqqa darslarida o’quvchilarni  
musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish. (Boshlang’ich  
sinflar miqiyosida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishiga ilmiy  
rahbar**

**X U L O S A S I**

Umumta’lim maktablarining “musiqqa madaniyati” darslarida o’quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini shakllantirish o’ziga xos pedagogik, metodik yondoshuvlar asosida ish tutishni talab qiladi.

Fatliyeva Gulnar tomonidan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi sifatida tadqiq etilgan muammo umumta’lim maktablarida o’quvchilarni musiqiy nazariy savodxon qilib tarbiyalasjga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat va uni yana takomillashtirishga xizmat qiluvchi o’ziga xos metodik tizimni ishlab chiqishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir va uning nazariy, ilmiy, metodik va didaktik asoslari ochib berilgan.

Dissertatsiya uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro’yixatidan iborat tarkibiy tuzulishda bajarilgan.

Ishning kirish qismida mavzu muammosining dolzarbligi, maqsad vazifalari, ilmiy amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

“Musiqqa darslarida o’quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari” deb nomlangan birinchi bob mazmunida musiqqa darslarida musiqqa savodxonligi faoliyatida olib boriladigan pedagogik faoliyat mazmuni, nazariy savodxonlikning o’quvchilar musiqqa madaniyatini shakllantirishdagi o’rni va ahamiyati, musiqiy-nazariy savodxonlik bo’yicha o’quvchilarning bilim va malakalariga qo’yiladigan standart talablariga tarif berilgan.

Tadqiqot ishining “Musiqqa darslarida o’quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobida umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida o’quvchilarning musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirish metodik shart-sharoitlari va bu jarayonni samaradorligini ta’minlashga yo’naltirilgan ish shakl, usul va vositalari haqida fikr yuritilgan. Muallif tomonidan samarali deb topilgan ish usullarini amaliyotga tadbiiq etish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari tadqiqotning ilmiy farazini muvaffaqiyatli yechim topganligini va tadqiqotchining o’z izlanishlariga ilmiy jihatdan to’g’ri yondoshganligini bildiradi.

Tadqiqotning bajarish davomida erishilgan natijalar, chiqarilgan xulosa va ishlab chiqilgan tavsiyalar musiqqa pedagogikasi va metodikasini boyitishga, musiqqa darslarida o’quvchilarni musiqiy nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo’naltirilgan faoliyat mazmunini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Dissertatsiya, uni bajarishga qo’yilgan talablarga javob beradigan darajada yozilgan. Shu bois uni mustaqil bajarilgan va tugallangan tadqiqot ishi sifatida baholash bilan ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

Dots. OBIDOV F. M.

